

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИК ТҮПЛАМИ

23-24-сон
(1199-1200)
2025 йил
июнь

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик түплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига давлат рўйхатидан ўtkазилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

Биринчи бўлим

285. «Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига судлар фаолиятининг ҳамда фуқаролар ҳуқук ва эркинликларининг кафолатларини кучайтиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 9 июндаги ЎРҚ-1067-сон Қонуни

286. «Ўзбекистон Республикаси билан Қирғизистон Республикаси ўртасида озодликдан маҳрум этилган шахсларни жазони ўташни давом эттириш учун топшириш тўғрисидаги Шартномани (Тошкент, 2024 йил 18 июль) ратификация қилиш хақида» Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 9 июндаги ЎРҚ-1068-сон Қонуни

Иккинчи бўлим

287. «Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 2 июн-даги ПФ-91-сон Фармони

Учинчи бўлим

288. «Сувдан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш устидан давлат назоратининг самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 7 июндаги 352-сон қарори
289. «Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги тизимида ахборот технологиялари ўналишига ихтисослаштирилган мактаблар тармоғини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 14 июндаги 364-сон қарори
290. «Давлат умумий ўрта таълим ташкилотларида айрим тоифадаги ўқувчиларни мактабдан ташқари таълимга жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 14 июндаги 365-сон қарори

Бешинчи бўлим

291. Ўзбекистон Республикаси мудофаа вазирининг 2025 йил 14 майдаги 494-сон “Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳарбий рўйхатга олишни ташкил этиш ва юритиш тартиби тўғрисидаги ўйриқномага ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 3 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3272-3*)
292. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 16-maydagi 9/2-son hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2025-yil 15-maydagi 2-son “Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi va investitsiya maslahatchisi sisatida professional faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 3-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1782-5*)
293. O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash vazirining 2025-yil 20-maydag‘i 9-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 4-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3627*)

294. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-maydagi 10/10-son "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 4-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2570-2*)
295. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2025-yil 6-maydagi 01/14-11/38-son "O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 5-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3487-2*)
296. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 8-maydagi 257-son va Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 7-maydagi 31-son "Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 5-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1781-5*)
297. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 28-maydagi 263-son "Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning ilovasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 5-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2606-9*)

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-хуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

БИРИНЧИ БЎЛIM

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ

285 Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун ҳужжатларига судлар фаолиятиниң ҳамда фуқаролар хуқуқ ва эркинликларининг кафолатларини кучайтиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида*

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 21 январда қабул қилинган

Сенат томонидан 2025 йил 17 марта маъқулланган

Кейинги йилларда мамлакатимизда суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашга, суд ишлари юритилишини такомиллаштиришга, шунингдек фуқароларнинг ва тадбиркорлик фаолияти субъектларининг хуқуклари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини суд орқали ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтиришга қаратилган ислоҳотлар амалга оширилди.

Шу билан бирга янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясида Ўзбекистон Республикаси Олий судига ҳамда унинг ваколатларига тааллуқли янги нормалар белгиланганлиги Ўзбекистон Республикаси Олий суди фаолиятини ягона ёндашув асосида ислоҳ қилиш зарурлигини тақозо этмоқда.

Ушбу Қонун билан «Судлар тўғрисида»ги ва «Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгashi тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунлари нормалари Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқлаштирилмоқда.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексида гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи ўзининг айбисизлигини исботлаши шарт эмаслиги ва исталган вақтда сукут сақлаш хукуқидан фойдаланиши мумкинлиги, ҳеч ким ўзига ҳамда яқин қариндошларига қарши гувоҳлик беришга мажбур эмаслиги, агар шахснинг ўз айбини тан олганлиги унга қарши ягона далил бўлса, у айборд деб топилиши ёки жазога тортилиши мумкин эмаслиги, шунингдек шахснинг судланганлиги ва бундан келиб чиқадиган хукукий оқибатлар унинг қариндошлари хукукларини чеклаш учун асос бўлиши мумкин эмаслиги белгиланмоқда.

Ушбу Қонун янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституция-

* Ушбу Қонун «Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси»да 2025 йил 10 июняда эълон қилинган.

сининг сўёзиз ва тўлиқ амалга оширилишини, одил судловни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси нормаларининг тўғридан-тўғри қўлланилишини таъминлашга ҳамда давлат органларининг фаолиятини янгича конституциявий-ҳукуқий шароитларда йўлга қўйишга хизмат қиласди.

1-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2013—ХII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 2, 5-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 12, 269-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 5-6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5-6, 153-модда, № 7-8, 217-модда; 2001 йил, № 1-2, 11, 23-моддалар, № 9-10, 165, 182-моддалар; 2002 йил, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 5, 67-модда; 2004 йил, № 1-2, 18-модда, № 9, 171-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 12, 418-модда; 2006 йил, № 6, 261-модда; 2007 йил, № 4, 166-модда, № 6, 248, 249-моддалар, № 9, 422-модда, № 12, 594, 595, 607-моддалар; 2008 йил, № 4, 177, 187-моддалар, № 9, 482, 484, 487-моддалар, № 12, 636, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 4, 136-модда, № 9, 335-модда, № 12, 469, 470-моддалар; 2010 йил, № 6, 231-модда, № 9, 334, 336, 337, 342-моддалар, № 12, 477-модда; 2011 йил, № 4, 103, 104-моддалар, № 9, 252-модда, № 12/2, 363-модда; 2012 йил, № 1, 3-модда, № 9/2, 244-модда, № 12, 336-модда; 2014 йил, № 9, 244-модда; 2015 йил, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 385-модда; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 6, 300-модда, № 9, 506, 510-моддалар, № 10, 605-модда; 2018 йил, № 1, 1, 5-моддалар, № 4, 218, 224-моддалар, № 7, 430, 431-моддалар, № 10, 679-модда; 2019 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 2, 47-модда, № 3, 161-модда, № 5, 259, 267-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 469-модда, № 9, 589, 592-моддалар, № 10, 671-модда, № 11, 787, 791-моддалар, № 12, 880, 881, 891-моддалар; 2020 йил, № 3, 204-модда, № 5, 296-модда, № 12, 689-модда; 2021 йил, № 1, 5, 11, 13, 14-моддалар, № 2, 142, 144-моддалар, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар, № 9, 903-модда, № 10, 973-модда, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 2, 81-модда, № 3, 216-модда, № 4, 337-модда, № 6, 575-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185-моддалар, № 4, 265, 269-моддалар, № 5, 319-модда, № 9, 713-модда; 2024 йил, № 1, 8-модда, № 2, 115-модда, № 9, 964-модда, № 10, 1070, 1073, 1077, 1083-моддалар, № 12, 1280, 1286, 1292-моддалар) куйидаги ўзгартиришлар ва қўшимча киритилсан:

1) **23-модданинг иккинчи ва учинчи қисмлари** қўйидаги мазмундаги **иккинчи, учинчи ва тўртинчи қисмлар** билан алмаштирилсан:

«Айбдорликка оид барча шубҳалар, агар уларни бартараф этиш имкониятлари тугаган бўлса, гумон қилинувчининг, айланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши керак. Шунингдек қонун қўлланилаётганда келиб чиқадиган шубҳалар ҳам гумон қилинувчининг,

айбланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши керак.

Гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи ўзининг айбсизлигини исботлаши шарт эмас ва исталган вақтда сукут сақлаш хукуқидан фойдаланиши мумкин.

Агар шахснинг ўз айбини тан олганлиги унга қарши ягона далил бўлса, у айборд деб топилиши ёки жазога тортилиши мумкин эмас»;

2) **24-модданинг биринчи қисми** «Гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчи ҳимояланиш хукуқига эга» деган сўзлардан кейин «бўлиб, уларга ўзини ҳимоя қилиш учун барча имкониятлар таъминланади» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

3) **66-модданинг биринчи қисмидаги** «ўзига қарши кўрсатув бермаслик» деган сўзлар «ўзига ва яқин қариндошларига қарши кўрсатув бермаслик» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

2-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида»**ги ЎРҚ-427-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2017 йил, № 4, 135-модда; 2019 йил, № 9, 591-модда; 2020 йил, № 11, 652-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 9, 904-модда; 2024 йил, № 9, 964-модда) қўйидаги ўзгартиришлар киритилсин:

1) **5-модданинг:**

иккинчи — бешинчи қисмлари қўйидаги таҳирда баён этилсин:

«Кенгаш таркиби Ўзбекистон Республикаси Президентининг тақдимига биноан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати томонидан сайланади.

Айни бир шахс сурункасига икки мурдатдан ортиқ Кенгаш раиси, раис ўринбосари этиб сайланиши мумкин эмас.

Кенгашнинг ўн бир нафар аъзоси судьялар орасидан сайланади. Кенгашнинг ушбу аъзоларидан бир нафари Қорақалпоғистон Республикаси судларининг судьялари орасидан сайланади.

Кенгашнинг котиби ва етти нафар аъзоси фуқаролик жамияти институтлари вакиллари ҳамда хукуқ соҳасидаги юқори малакали мутахассислар орасидан сайланади»;

олтинчи қисмидаги «тасдиқланган» деган сўз «сайланган» деган сўз билан алмаштирилсин;

еттинчи қисмидаги «тасдиқланган» деган сўз «сайланган» деган сўз билан алмаштирилсин;

2) **26-модданинг иккинчи хатбошисидаги** «тайинланиши (тасдиқланади)» деган сўзлар «сайланади» деган сўз билан алмаштирилсин;

3) **27-модданинг:**

биринчи қисмидаги «тайинланиади (тасдиқланади)» деган сўзлар «сайланади» деган сўз билан алмаштирилсин;

иккинчи қисмидаги «тайинланиши (тасдиқланади)» деган сўзлар «сайланади» деган сўз билан алмаштирилсин;

4) **28-модданинг биринчи қисмидаги** «тасдиқланган» деган сўз «сайланган» деган сўз билан алмаштирилсин;

5) **29-модданинг иккинчи қисмидаги** «тасдиқланган» деган сўз «сайланган» деган сўз билан алмаштирилсин;

6) 31-модданинг:

биринчи қисмидаги «тайинланишига (тасдиқланишига)» деган сўзлар «сайланишига» деган сўз билан алмаштирилсин;

иккинчи қисмидаги «тасдиқланган» деган сўз «сайланган» деган сўз билан алмаштирилсин.

3-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 28 июлда қабул қилинган **«Судлар тўғрисида»**ги ЎРҚ-703-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 663-модда; 2024 йил, № 2, 117-модда, № 8, 823-модда, № 9, 964-модда) қуидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин:

1) 1-модданинг матни қўидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимияти қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятдан, сиёсий партиялардан, фуқаролик жамиятининг бошқа институтларидан мустақил ҳолда иш юритади.

Ўзбекистон Республикасида одил судлов факат суд томонидан амалга оширилади. Ҳеч қайси бошқа органлар ва шахслар суд ҳокимияти ваколатларини ўзлаштириб олишга ҳақли эмас»;

2) 6-модданинг матни қўидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Олий суди ўз ваколатлари жумласига киритилган масалалар бўйича қонун лойиҳасини Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига киритиш орқали амалга ошириладиган қонунчилик ташаббуси ҳукуқига эга»;

3) 8-модданинг матнидаги «қонунга» деган сўз «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

4) 9-модда:

биринчи қисми қўидаги таҳрирда баён этилсин:

«Судъялар мустақиллар, фақат Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига бўйисунадилар. Судъяларнинг одил судловни амалга оширишга доир фаолиятига ҳар қандай тарзда аралашибга йўл қўйилмайди ва бундай аралашиб қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади. Судъялар муайян ишлар бўйича хисобдор бўлмайди»;

қўидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Судъяни муайян ишнинг муҳокамасидан четлаштиришга ёки унинг ваколатларини тўхтатиб туришга, бошқа лавозимга ўтказишга фақат қонунда белгиланган тартибда ва асосларга кўра йўл қўйилади»;

5) 13-модданинг биринчи қисми қўидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикасида суд ишларини юритиш ўзбек тилида, қорақалпок тилида ёки муайян жойдаги қўпчилик аҳоли сўзлашадиган тилда ёхуд қонунга мувофиқ бошқа тилда олиб борилади»;

6) **14-модданинг матни** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар давлат органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг, улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорларидан, ҳаракатлари ва ҳаракатсизлигидан, шу жумладан уларнинг қариндошлари судланганлиги ва бундан келиб чиқадиган ҳуқуқий оқибатлар муносабати билан ҳуқуқларининг чекланишидан, шунингдек ҳаёти ва соғлифи, шаъни ҳамда қадр-қиммати, шахсий эркинлиги ва мол-мулки, бошқа ҳуқуқ ва эркинликларига тажовузлардан суд химоясида бўлиш ҳуқуқига эга. Юридик шахслар ҳам суд химоясида бўлиш ҳуқуқига эгадир»;

7) **15-модда** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«15-модда. Одил судловни амалга оширишда малакали юридик ёрдам

Одил судловни амалга оширишда ҳар бир кишига малакали юридик ёрдам олиш ҳуқуки кафолатланади. Гумон қилинувчига, айбланувчига, судланувчига суд ишларини юритишнинг ҳар қандай босқичида химояланиш ҳуқуки ва ўзини химоя қилиш учун барча имкониятлар таъминланади.

Қонунда назарда тутилган ҳолларда давлат хисобидан малакали юридик ёрдам кўrsатилиши таъминланади»;

8) **16-модданинг матни** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Жиноят содир этганликда айбланаётган шахс унинг айби қонунда назарда тутилган тартибда ошкора суд муҳокамаси йўли билан исботланмагунча ва суднинг қонуний кучга кирган ҳукми билан аниқланмагунча айбсиз деб хисобланади.

Айборликка оид барча шубҳалар, агар уларни бартараф этиш имкониятлари тугаган бўлса, гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши керак.

Гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи ўзининг айбсизлигини исботлаши шарт эмас ва исталган вақтда сукут сақлаш ҳуқуқидан фойдаланиши мумкин.

Агар шахснинг ўз айбини тан олганлиги унга қарши ягона далил бўлса, у айбор деб топилиши ёки жазога тортилиши мумкин эмас.

Ҳеч ким қонунга асосланмаган ҳолда хибсга олиниши, ушлаб турилиши, қамоққа олиниши, қамоқда сақланиши ёки унинг озодлиги бошқача тарзда чекланиши мумкин эмас.

Ҳибсга олишга, қамоққа олишга ва қамоқда сақлашга фақат суднинг қарорига кўра йўл қўйилади. Шахс суднинг қарорисиз кирқ саккиз соатдан ортиқ муддат ушлаб турилиши мумкин эмас.

Ҳеч ким қўйноққа солиниши, зўравонликка, бошқа шафқатсиз, файриинсоний ёки инсон қадр-қимматини камситувчи муомалага ёхуд жазога дувор этилиши мумкин эмас»;

9) **19-модданинг биринчи қисми** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Олий суди раис, унинг биринчи ўринbosари ва ўринbosарлари — маъмурий, фуқаролик, жиноят ва иқтисодий ишлар

бўйича судлов ҳайъатлари раислари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий судининг судьяларидан иборатдир;

10) **60-модда биринчи қисмининг иккинчи хатбошисидаги «қонунга» деган сўз «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;**

11) 79-модда:

қуидаги мазмундаги **бешинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Суднинг қайта ташкил этилиши ёки тугатилиши судьяни лавозимидан озод этиш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин эмас»;

бешинчи қисми олтинчи қисм деб ҳисоблансин;

12) **90-модда биринчи қисмининг биринчи жумласи** қуидаги таҳрирда баён этилсин:

«Судларнинг фаолиятини молиялаштириш, уларнинг биноларини қўриқлаш ва сақлаб туриш Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан амалга оширилади ҳамда одил судловни тўлик ва мустақил равишда амалга ошириш имкониятини таъминлаши керак».

4-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

хукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштиурсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-хукуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишилари ва бекор қилишларини таъминласин;

ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда мохияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

5-модда. Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 9 июнь,
ЎРҚ-1067-сон

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ
ҚОНУНИ

286 Ўзбекистон Республикаси билан Қирғизистон Республикаси ўртасида озодликдан маҳрум этилган шахсларни жазони ўташни давом эттириш учун топшириш тўғрисидаги Шартномани (Тошкент, 2024 йил 18 июль) ратификация қилиш ҳақида*

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 31 январда қабул қилинган

Сенат томонидан 2025 йил 18 марта маъқулланган

Ўзбекистон Республикаси билан Қирғизистон Республикаси ўртасида озодликдан маҳрум этилган шахсларни жазони ўташни давом эттириш учун топшириш тўғрисидаги Шартнома (Тошкент, 2024 йил 18 июль) ратификация қилинсин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 9 июнь,
ЎРҚ-1068-сон

* Ушбу Қонун «Қонунчилик маълумотлари миллӣй базаси»да 2025 йил 10 июня эълон қилинган.

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ

287 Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида*

Аҳоли турмуш даражасини оширишга қаратилган чора-тадбирлар кўламини кенгайтириш, фуқароларнинг даромадларини изчил ошириб бориш сиёсатини давом эттириш ҳамда уларнинг ижтимоий муҳофазасини кучайтириш мақсадида **қарор қиласман**:

I. Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш

1. 2025 йил 1 июлдан бошлаб пенсиялар ва нафақалар ҳамда кам таъминланган оилаларга болалар нафақалари ва моддий ёрдам тўловлари миқдорла-ри 10 фоизга оширилсин. Бунда:

- (а) ёшга доир энг кам пенсия миқдори — ойига 918 000 сўм этиб;
- (б) ногиронлик пенсияларининг энг кам миқдори — ойига 1 012 000 сўм этиб;
- (в) кам таъминланган оилаларга болалар нафақасининг ҳар ойлик миқдори:
 - (i) 3 ёшгача бўлган битта кичик фарзанди учун — 360 000 сўм, 3 ёшдан 18 ёшгача бўлган битта фарзанди учун — 275 000 сўм;
 - (ii) оиланинг иккинчи фарзанди учун қўшимча — 165 000 сўм;
 - (iii) оиланинг учинчи ва ундан кейинги ҳар бир фарзанди учун қўшимча — 110 000 сўм этиб;
- (г) кам таъминланган оилалар учун моддий ёрдамнинг ойлик миқдори — 420 000 сўм этиб;
- (д) фуқароларга тўланадиган бошқа пенсиялар ва нафақалар миқдорла-ри иловага мувофиқ белгилансин.

2. 2025 йил 1 августдан бошлаб бюджет ташкилотлари ходимларининг иш ҳақи ва стипендиялар миқдори 10 фоизга оширилсин.

II. Базавий миқдорларни белгилаш

3. Кўйидагилар:

- (а) 2025 йил 1 июлдан бошлаб пенсияни ҳисоблашнинг базавий миқдори — ойига 471 000 сўм этиб;
- (б) 2025 йил 1 августдан бошлаб:

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 3 июнда эълон қилинган.

- (i) меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори — ойига 1 271 000 сўм;
- (ii) базавий ҳисоблаш миқдори — 412 000 сўм этиб белгилансин.

III. Молиявий ресурслар

4. Бюджет ташкилотлари ходимларининг иш ҳақлари, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдори оширилиши билан боғлиқ харажатлар Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси маблағлари хисобидан қоплансин.

IV. Фармон ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

5. Иш берувчиларга иш ҳақи миқдорини қонунчилик ҳужжатларида белгилangan меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдоридан кам бўлмаган ҳолда тўлашни таъминлаб, иш ҳақи миқдорини меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорига мувофиқ ошириш тавсия этилсин.

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси ҳамда Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги билан биргаликда ушбу Фармоннинг мақсади, вазифалари ва ундан кутилаётган натижаларни оммавий ахборот воситалари, Интернет ва ижтимоий тармоқларда кенг ёритиш ишларини ташкил қилсин.

7. Мазкур Фармоннинг ижросини таъминлаш учун масъул ва шахсий жавобгар этиб Бош вазир ўринбосари Ж.А. Кўчкоров белгилансин.

8. Фармон ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 2 июнь,
ПФ-91-сон

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 2 июндаги
ПФ-91-сон Фармонига
ИЛОВА

**2025 йил 1 июлдан бошлаб фуқароларга тўланадиган бошқа
пенсиялар ва нафақалар миқдорлари**

1. Иш стажи тўлиқ бўлмаган чоғдаги ногиронлик пенсиясининг энг кам миқдори — ойига 1 012 000 сўм.
2. Мехнатга лаёқатсиз фуқароларга бериладиган ногиронлик нафақаси ва болаликдан ногиронлиги бўлган шахсларга бериладиган нафақа миқдори — ойига 1 012 000 сўм.
3. 1941 — 1945 йиллардаги уруш оқибатида ногирон бўлган шахслар ва унинг қатнашчилари, шунингдек, фашистлар концлагерларининг вояга етмаган собиқ маҳбуслари ва Ленинград шаҳри қамал қилинган даврда ишлаган шахсларнинг энг кам пенсия миқдори устамаларни инобатга олган ҳолда — ойига 4 462 000 сўм.
4. Белгиланган ёшга доир энг кам пенсия миқдоридан (918 000 сўмдан) 1 012 000 сўмгача пенсия олувчилярнинг ёшга доир пенсиялари миқдори — ойига 1 012 000 сўм.
5. Зарур иш стажига эга бўлмаган кекса ёшдаги фуқароларга бериладиган нафақа миқдори — ойига 820 000 сўм.
6. Иш стажи тўлиқ бўлмаган чоғдаги ёшга доир пенсиянинг энг кам миқдори қўшимча тўловни ҳисобга олган ҳолда — ойига 820 000 сўм.
7. Ўзгалар парваришига муҳтоҷ ногиронлиги бўлган 18 ёшгача болаларнинг парвариши билан банд бўлган боланинг қонуний вакилига бериладиган нафақа миқдори — ойига 820 000 сўм.
8. Боқувчисини йўқотганлик нафақаси олувчилярнинг бир нафар меҳнатга қобилиятысиз оила аъзоси учун нафақа миқдори — ойига 820 000 сўм этиб белгиланади ва кейинги ҳар бир меҳнатга қобилиятысиз оила аъзоси учун — 270 000 сўмдан қўшилади.
9. Боқувчисини йўқотганлик пенсияси олувчилярнинг бир нафар меҳнатга қобилиятысиз оила аъзоси учун пенсиянинг энг кам миқдори — ойига 820 000 сўм этиб белгиланади ва кейинги ҳар бир меҳнатга қобилиятысиз оила аъзоси учун амалдаги тартибга мувофиқ пенсия тўланади.

УЧИНЧИ БЁЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

288 Сувдан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш устидан давлат назоратининг самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Сув хўжалигида замонавий бошқарув тизимини жорий қилиш ва ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаш тўғрисида» 2024 йил 7 майдаги ПФ-74-сон Фармони ижросини таъминлаш, шунингдек, сувдан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш устидан давлат назоратининг самарадорлигини ошириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қиласди**:

1. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли тартибини (қоидаларини) бузиш билан боғлиқ хуқуқбузарлик ҳолатлари бўйича фотосуратлар ва (ёки) видеоёзувларни юборган шахсларни:

тасдиқланган ҳар бир ҳолат бўйича хуқуқбузардан ундирилган маблағлар ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш фоизи миқдорида пул мукофоти билан рағбатлантириш;

маъмурӣ жарима билан боғлиқ бўлмаган бошқа жазо чораси қўлланган ҳолларда, Вазирлар Маҳкамасининг «Фуқаролар ва жамоат ташкилотларини хуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишдаги фаол иштироки учун рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 2018 йил 8 январдаги 15-сон қарорига мувофиқ рағбатлантириш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

2. Белгилаб қўйилсинки:

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги хузуридаги Сув хўжалиги обьектлари хавфсизлигини ва сувдан фойдаланишни назорат қилиш инспекциясининг (кейинги ўринларда — Инспекция) ходимларига хизмат мажбуриятларини бажаришда идоравий формали кийим-бошлар кийиб юрishiга ва тегишли фарқлаш белгиларини тақишига рухsat этилади;

Инспекция ходимлари идоравий формали кийим-бошлар ва фарқлаш белгилари билан Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлигининг Сув хўжалигини ривожлантириш жамғармаси маблағлари ҳисобидан таъминланади.

3. Инспекция:

идоравий формали кийим-бошларни тикиш учун маҳаллий ишлаб чиқа-

* Ушбу қарор «Конунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 11 июнда эълон қилинган.

рувчилар ўртасида белгиланган тартибда танлов (тендер) савдолари ўтказилишини;

2025 йил якунига қадар Инспекция ходимларининг идоравий формали кийим-бошлари тайёрланишини ва уларга тўлиқ ўтилишини таъминласин.

4. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги уч ой муддатда Инспекция ходимларининг идоравий формали кийим-бошларни кийиб юриши ва фарқлаш белгиларини тақиш тартибини тасдиқласин.

5. Кўйидагилар:

Жисмоний шахслар томонидан қайд этилган сув хўжалиги соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги фотосуратлар ва (ёки) видеоёзувларни қабул қилиш, кўриб чиқиш ҳамда уларни тақдим этган шахсларни рағбатлантириш тартиби ҳақидаги низом 1-иловага мувофиқ;

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги хузуридаги Сув хўжалиги обьектлари хавфсизлигини ва сувдан фойдаланишини назорат қилиш инспекцияси ходимларининг идоравий формали кийим-бошлари ҳамда фарқлаш белгилари намуналари ва тавсифи 2-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

6. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг 3-иловага мувофиқ айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

7. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Ж.А. Ходжаев ва Ўзбекистон Республикаси сув хўжалиги вазири Ш.Р. Хамраев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 7 июнь,
352-сон

* 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 7 июндаги 352-сон қарорига
1-ИЛОВА

Жисмоний шахслар томонидан қайд этилган сув хўжалиги соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги фотосуратлар ва (ёки) видеоёзувларни қабул қилиш, кўриб чиқиш ҳамда уларни тақдим этган шахсларни рағбатлантириш тартиби ҳақида НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом жисмоний шахсларнинг видеокузатув ва тасвирга олиш техника воситалари ҳамда мобил қурилмалар (кейинги ўринларда — видеотехника воситалари) орқали қайд этилган сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли тартибини (қоидаларини) бузиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар (кейинги ўринларда — ҳуқуқбузарлик) акс эттирилган фотосуратлар ва (ёки) видеоёзувларни (кейинги ўринларда — фото ва видеоматериаллар) қабул қилиш, кўриб чиқиш ҳамда уларни тақдим этган шахсларни рағбатлантириш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низом тартиби Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 74-моддасининг иккинчи қисмида (сунъий сув объектларидан олинадиган сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли қоидаларини бузиш, яъни сувдан хўжасизларча фойдаланиш, сувларнинг ва сув объектларининг ҳолатига таъсир этувчи гидротехника ишларини ўзбошимчалик билан бажариш) назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларга нисбатан татбиқ этилади.

3. Videoteknika воситалари орқали қайд этилган ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги фото ва видеоматериалларни қабул қилиш, кўриб чиқиш ҳамда уларни тақдим этган шахсларни рағбатлантириш ушбу Низомга иловага* муровфика схема асосида амалга оширилади.

2-боб. Ҳуқуқбузарликни видеотехника воситалари орқали қайд этиш

4. Жисмоний шахслар ҳуқуқбузарликни видеотехника воситалари орқали қайд этиши ҳамда 48 соат ичидаги фото ва видеоматериалларни электрон шаклда Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Сув хўжалиги объектлари хавфсизлигини ва сувдан фойдаланишини назорат қилиш инспекциясига (кейинги ўринларда — Инспекция) унинг расмий «v-nadzor.gov.uz» веб-сайти орқали кўриб чиқиш учун юборади.

Бунда юборилган маълумотларнинг тўғрилиги учун ушбу маълумотни юборган жисмоний шахс масъул ҳисобланади.

5. Videoteknika воситалари орқали қайд этилган ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги фото ва видеоматериалларда қўйидагилар акс эттирилиши лозим:

* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

содир этилган ҳуқуқбузарлик;

ҳуқуқбузарлик содир этган шахс тўғрисидаги маълумотлар (агар мавжуд бўлса);

ҳуқуқбузарлик содир этилган манзил, шунингдек, ҳуқуқбузарлик аниқланган сана ва вакт.

6. Ҳуқуқбузарлик акс эттирилган фото ва видеоматериалга ҳар қандай тарзда ўзгартиришлар киритиш тақиқланади. Ўзгартириш киритилган фото ва видеоматериаллар кўриб чиқилмайди, ҳажмини қисқартириш мақсадида фото ва видеоматериалларнинг бевосита ҳуқуқбузарлик акс эттирилган қисмини кесиб олиш бундан мустасно (қоида тариқасида, фото ва видеоматериалларнинг давомийлиги 120 сониядан ошмаслиги лозим).

7. Ҳуқуқбузарлик холати акс эттирилган фото ва видеоматериалларни юбориша ушбу Низомнинг 5-бандида белгиланган маълумотларга қўшимча қилиб, ҳуқуқбузарлик тўғрисида маълумотларни тақдим этган фуқаронинг фамилияси, исми, отасининг исми, доимий яшаш манзили, мобил телефон рақами, банк пластик картаси рақами ва электрон манзили тўлиқ кўрсатилиши лозим.

3-боб. Видеотехника воситалари орқали қайд этилган ҳуқуқбузарликни кўриб чиқиш

8. Ҳуқуқбузарлик қайд этилган фото ва видеоматериаллар келиб тушган кундан бошлаб ўн кун муддатда Инспекциянинг масъул ходими томонидан кўриб чиқлади, ҳуқуқбузарлик холатлари ўрганилади ва ҳуқуқбузарнинг шахси аниқланади.

Ҳуқуқбузарлик биринчи маротаба содир этилган бўлса, ҳуқуқбузарга поча алоқаси ёки электрон ахборот тизимлари орқали сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли тартиби (қоидалари) такорран бузилишининг олдини олишга қаратилган тавсиялар юборилади.

Маъмурий жазо чораси кўлланганидан кейин бир йил давомида ҳуқуқбузарлик такорран содир этилган тақдирда, ушбу Низом қоидалари татбиқ этилаётган Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг тегишли моддаларида назарда тутилган миқдорларда жарима солишга сабаб бўлади.

9. Инспекциянинг масъул ходими беш кун муддатда:

маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахсга нисбатан белгиланган шаклдаги маъмурий баённома ёки маъмурий жазони қўллаш тўғрисидаги қарорни Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ягона электрон иш юритув тизими (кейинги ўринларда — «E-ma’turig’i ish» тизими) орқали расмийлаштиради;

жарима солиш тўғрисидаги тегишли қарор ва тайинланган жаримани тўлаш учун тўлов варақасини (квитанцияни) ҳуқуқбузарнинг телефон рақамига «СМС» хабарнома шаклида ёки яшаш манзилига поча орқали юборади ёхуд ҳуқуқбузарга бевосита тақдим этади.

10. Содир этилган ҳуқуқбузарлик холатини кўриб чиқиш Инспекция ваколати доирасида бўлмаса, масъул ходим уч кун муддатда ҳужжатларни

тегишли судга ёки бошқа ваколатли органга белгиланган тартибда юборади;

агар содир этилган ҳуқуқбузарликда жиноят аломатлари аниқланса, фото ва видеоматериалларни бир кун муддатда тегишли ҳуқуқни мухофаза қилувчи органга юборади.

11. Қўйидаги ҳолларда видеотехника воситалари орқали қайд этилган ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги фото ва видеоматериаллар асосида иш юритиш тугатилади ҳамда бу ҳақида тегишли қарор қабул қилинади:

фото ва видеоматериаллар ушбу Низомнинг 5-банди талабларига жавоб бермаслиги натижасида ҳуқуқбузарликни аниқлаш имкони бўлмаганда;

фото ва видеоматериалларга ўзгартиришлар киритилган бўлса, ушбу Низомнинг 6-бандида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно;

фото ва видеоматериалларда акс этирилган ҳуқуқбузарнинг шахсини аниқлаш имкони бўлмаганда;

фото ва видеоматериалларда қайд этилган ҳуқуқбузарлик бўйича тегишли қарор қабул қилинганда ёки маъмурий иш юритилаётганда.

12. Videoteknika воситалари орқали қайд этилган ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги фото ва видеоматериалларни кўриб чиқиш натижаси юзасидан уни юборган шахсга тегишли қарор қабул қилинган кундан эътиборан ўн беш кун муддатда доимий яаш ёки электрон почта манзилига жавоб юборилади.

Фото ва видеоматериалларни кўриб чиқиш натижаси юзасидан қабул қилинган қарордан норози бўлган шахслар белгиланган тартибда юкори турувчи органга ёки судга шикоят қилиши мумкин.

4-боб. Ҳуқуқбузарлик акс этирилган фото ва видеоматериалларни юборган шахсларни рағбатлантириш

13. Ҳуқуқбузарлик акс этирилган фото ва видеоматериалларни юборган шахслар ҳуқуқбузардан ундирилган жарима ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш фоизи миқдорида пул мукофоти билан рағбатлантирилади.

Ҳуқуқбузарлик бўйича маъмурий жарима билан боғлик бўлмаган бошқа жазо чораси қўлланган ҳолларда, фото ва видеоматериалларни юборган шахслар Вазирлар Маҳкамасининг «Фуқаролар ва жамоат ташкилотларини ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишдаги фаол иштироки учун рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 2018 йил 8 январдаги 15-сон қарорига мувофиқ рағбатлантирилади.

14. Ҳуқуқбузарлик акс этирилган фото ва видеоматериалларни юборган шахслар mobil телефон рақамини ёки банк пластик картаси рақамини кўрсатиш орқали рағбатлантириш пули қандай усулда қабул қилиб олинишини кўрсатиб ўтади.

15. Рағбатлантириш:

хуқуқбузарлик бўйича фото ва видеоматериалларни биринчи юборган шахсга нисбатан қўлланади;

хукуқбузарлик бўйича тегишли қарор қабул қилинганда ёки маъмурий иш юритилаётганда, шунингдек, ушбу Низомнинг 11-бандига асосан иш юритиш тутатилганда амалга оширилмайди;

жарима ундирилган кундан бошлаб ўн беш кун муддатда Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлигининг Сув хўжалигини ривожлантириш жамғармаси маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.

16. Рафбатлантириш маблағи ҳукуқбузардан жарима ундирилгандан сўнг Инспекциянинг расмий хатига асосан фуқаронинг мобил телефон рақами ҳисобига ёки банк пластик картасига Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлигининг Сув хўжалигини ривожлантириш жамғармаси ҳисобидан ўтказиб берилади.

5-боб. Якунловчи қоидалар

17. Ҳукуқбузарлик акс эттирилган фото ва видеоматериалларни тақдим этган шахслар тўғрисидаги маълумотлар ошкор этилишига йўл қўйилмайди.

18. Ушбу Низомни қўллашда келиб чиқадиган низолар қонунчилик хужатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

19. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик хужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 7 июнданги 352-сон қарорига
3-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорлариға
киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Сув хўжалиги обьектлари хавфсизлигини ва сувдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси фаолиятини тартибга солувчи айрим норматив-хуқуқий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида» 2023 йил 27 сентябрдаги 500-сон қарорида:

а) 1-иловада:

8-банд қўйидаги мазмундаги «г» кичик банд билан тўлдирилсин:

«г) «Сувхўжаликназорат» инспекциясининг жойлашган жойи (пошта манзили): 100128, Тошкент шаҳри Шайхонтоҳур тумани Туркқўрғон кўчаси 26-йўй»;

10-банднинг еттинчи хатбошисидаги «ишлар юритилишини назорат қилиш» сўzlари «ишларни кўриб чиқиш, жумладан, ваколат доирасида маъмурий хуқуқбузарликлар тўғрисидаги баённомаларни расмийлаштириш ҳамда айборд шахсларни жаримага тортиш» сўzlари билан алмаштирилсин;

11-банда:

йигирма саккизинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

йигирма тўққизинчи — ўттиз олтинчи хатбошилар тегишлича йигирма саккизинчи — ўттиз бешинчи хатбошилар деб хисоблансан;

27-банднинг учинчи хатбошидаги «24» рақами «23» рақами, 28-банднинг учинчи хатбошидаги «25» рақами «24» рақами, 29-банднинг учинчи хатбошидаги «26» рақами «25» рақами, 30-банднинг учинчи хатбошидаги «27» рақами «26» рақами билан алмаштирилсин;

41-банда:

иккинчи хатбоши чиқариб ташлансан;

учинчи хатбоши қўйидаги таҳирда баён этилсан:

«Инспекция ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш ва уларни рағбатлантириш Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 7 октябрдаги 645-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва унинг тизимидаги ташкилотлар ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш ва уларни моддий рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низом асосида амалга оширилади»;

учинчи ва тўртинчи хатбошилар тегишлича иккинчи ва учинчи хатбошилар деб хисоблансан;

б) 2-иловага иловада:

1-позициядаги «З. Ирисбоев — Сув хўжалиги обьектлари хавфсизлигини ва сувдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси бошлифи в.в.б.» сўzlари «Р.Б. Рахимов — Сув хўжалиги обьектлари хавфсизлигини ва сувдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси бошлифи» сўzlари билан алмаштирилсан;

2-позициядаги «А.С. Назаров — Сув хўжалиги вазирининг биринчи ўрин-

босари» сўзлари «З.Э. Ишпулатов — Сув хўжалиги обьектларини эксплуатация қилиш агентлиги директори» сўзлари билан алмаштирилсин.

2. Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 7 октябрдаги 645-сон карори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Сув хўжалиги обьектларини эксплуатация қилиш агентлиги тўғрисида низомнинг 42-банди иккинчи хатбоисидаги «ўз мақомига қўра» сўзлари чиқариб ташлансин.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ**

289 Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги тизимида ахборот технологиялари ўйналишига ихтисослаштирилган мактаблар тармоғини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ихтисослаштирилган мактаблар тармоғини кенгайтириш ва уларнинг фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2024 йил 1 апрелдаги ПФ-55-сон Фармонига мувофиқ ахборот технологиялари соҳасида малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини яратиш ҳамда соҳа бўйича иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш механизмларини янада такомиллаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қиласди**:

1. Қўйидагилар:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 апрелдаги ПФ-55-сон Фармони билан Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 14 апрелдаги ПФ-106-сон Фармонининг 4 ва 7-иловаларига мувофиқ қурилиши назарда тутилган 13 та ихтисослаштирилган мактаб-интернат негизида Мухаммад ал-Хоразмий номидаги ихтисослаштирилган мактабнинг филиалларини ташкил этиш тўғрисидаги таклифлари маъкулланганлиги;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 14 апрелдаги ПФ-106-сон Фармонига мувофиқ Вазирлар Маҳкамасига зарур ҳолларда, мазкур Фармоннинг 1 — 4-иловаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шу жумладан Корақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари таклифига асосан Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги ҳузуридаги Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) тизимида ташкил этиладиган ихтисослаштирилган мактаб-интернатлар ва ихтисослаштирилган мактаблар сонини ошириш хуқуқи берилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Сурхондарё вилояти ҳокимлиги ҳамда Сирдарё вилояти ҳокимлигининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 14 апрелдаги ПФ-106-сон Фармони билан ташкил этилган Термиз шаҳар ихтисослаштирилган мактаби ва Гулистон шаҳар 2-сон ихтисослаштирилган мактаб-интернатларини Мухаммад ал-Хоразмий номидаги ихтисослаштирилган мактабнинг филиаллари (кейинги ўринларда — филиаллар) сифатида қайта ташкил этиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

3. Белгилансинки:

Тошкент шаҳридаги Мухаммад ал-Хоразмий номидаги ихтисослаштирил-

ган мактаб ахборот технологиялари йўналиши бўйича таянч мактаб хисобланади;

таянч мактаб директори ва филиал ижрочи директори Агентлик директори томонидан тайинланади;

таянч мактабга ва филиалларга раҳбар кадрлар икки босқичли (сарабаш ва сұхбат), педагог кадрлар уч босқичли (сарабаш, тест синови ва сұхбат) танлов асосида ишга қабул қилинади;

таянч мактабга ва филиалларга бир синфда ўқувчиларнинг энг кўп сони 24 нафардан ошмаслигини ҳисобга олган ҳолда, қабул параметрлари Агентлик томонидан белгиланади;

филиалларга ўқувчилар таянч мактаб учун белгиланган тартиб асосида сарабаб олинади;

филиалларда ўқувчилар учун аутсорсинг асосида белгиланган тартибда бепул соғлом овқатлантириш ташкил этилади;

филиалларнинг қурилиш ишлари таянч мактабнинг шароитидан кам бўлмаган ягона ёндашув асосида 2025 йилда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгashi, вилоятлар ҳокимлеклари томонидан Агентлик билан келишилган ҳолда амалга оширилади;

филиаллар замонавий талабларга мувофиқ пластик қопламали (HPL панел) синф столи, пластик қопламали эгри елимланган фанерали синф стуллари билан жихозланади.

4. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги:

2025 йил 1 августга қадар таянч мактаб ҳамда филиаллар учун лавозимлар ва штат бирликларининг намунавий штат жадвалини тасдиқласин;

ўқувчиларнинг инновацион ғоялари ва ишланмаларини ривожлантириш, замонавий касбларга ўргатиш учун уларнинг қизиқиши ва қобилиятларини инобатга олган ҳолда зарур шарт-шароитлар яратсин;

математика, информатика ва ахборот технологиялари, робототехника фанлари қўшимча ўқув дастурлари асосида ўқитилишини таъминласин;

Рақамли технологиялар вазирлиги билан биргаликда 2025 йил 1 августга қадар ахборот технологиялари йўналиши бўйича таълим дастурларини IT бозорида юқори талабга эга касбларга ўқитиш дастурлари ва ўкув қўлланмаларидан келиб чиқсан ҳолда такомиллаштирун.

5. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгashi, Андижон ва Самарқанд вилоятлари ҳокимлеклари билан биргаликда 2025 йил 1 сентябрга қадар филиал сифатида ташкил этилаётган Нукус шаҳар 2-сон, Андижон шаҳар 2-сон ҳамда Самарқанд шаҳар 2-сон ихтисослаштирилган мактаб-интернатларининг табиий фанлар йўналишида таълим олаётган ўқувчиларини Агентлик тизимидағи бошқа мактабларга жойлаштириш чораларини кўрсинг.

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги мазкур филиаллар таъминоти учун зарур харажатларни 2025 йилдан бошлаб белгиланган тартибда Давлат бюджети параметрларида назарда тутсинг.

7. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Кенгashi, Андижон ва Самарқанд вилоятлари ҳокимлеклари билан биргаликда 2025 йил 1 сентябрга қадар филиал сифатида ташкил этилаётган Нукус шаҳар 2-сон, Андижон шаҳар 2-сон ҳамда Самарқанд шаҳар 2-сон ихтисослаштирилган мактаб-интернатларининг табиий фанлар йўналишида таълим олаётган ўқувчиларини Агентлик тизимидағи бошқа мактабларга жойлаштириш чораларини кўрсинг.

ликаси мактабгача ва мактаб таълими вазири X.Ў. Умарова ҳамда рақамли технологиялар вазири Ш.Х. Шерматов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 14 июнь,
364-сон

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ**

290 Давлат умумий ўрта таълим ташкилотларида айрим тоифадаги ўқувчиларни мактабдан ташқари таълимга жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2025 йилда аҳоли бандлиги ни таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2025 йил 17 январдаги ПҚ-12-сон қарори ижросини таъминлаш, шунингдек, ўқувчиларни тўғаракларга жалб этиш орқали уларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишга кўмаклашиш, касб-хунар ўргатишни йўлга қўйиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қиласди:**

1. Қуйидагиларни назарда тутувчи Давлат умумий ўрта таълим ташкилотларида айрим тоифадаги ўқувчиларни мактабдан ташқари таълимга жалб қилиш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин:

айрим тоифадаги ўқувчиларни (кейинги ўринларда — ўқувчилар) мактабдан ташқари таълимга (кейинги ўринларда — тўғараклар) жалб қилиш бўйича электрон ахборот тизимини юритиш;

тўғаракларни ташкил этишда хусусий секторнинг иштироки ва уларга қўйиладиган талаблар;

ўқувчилар учун тўғарак харажатларининг бир қисмини Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан тўлаб бериш тартиби;

ўқувчиларнинг тўғараклардаги иштирокини мониторинг қилиб бориш тартиби.

2. Белгилансинки:

ўқувчиларнинг тўғаракларга жалб қилиш билан боғлиқ харажатларнинг 80 фоизи Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қоплаб берилади;

бер оиласда турли мактабда таълим оладиган фарзандлар мавжуд бўлганда, уларнинг ҳар бири ўз қизиқиши бўйича тўғараклarda иштирок этади.

3. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Рақамли технологиялар вазирлиги билан биргаликда 2025 йил 1 сентябрга қадар ўқувчиларни тўғаракларга жалб қилиш ва уларнинг харажатларини қоплаб бериш бўйича электрон платформа (кейинги ўринларда — платформа) ишлаб чиқсин. Бунда:

платформани ишлаб чиқиш, амалиётга татбиқ этиш ва келгусида техник жиҳатдан қўллаб-қувватлаш «Давлат ахборот тизимларини яратиш ва қўллаб-қувватлаш бўйича ягона интегратор — «UZINFOCOM» МЧЖ томонидан амалга оширилади;

платформа тегишли маълумотлар алмашинувини таъминлаш мақсадида 2-иловага мувофиқ манфаатдор вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимлари билан «Рақамли ҳукумат» тизимининг идоралараро интеграциялашув платформаси орқали интеграция қилинади.

4. Белгилаб қўйилсанки:

ўқувчиларни тўғаракларга жалб қилиш учун уларнинг ота-оналари (қонуний вакили) ҳамда тўғарак хизматларини таклиф этувчи ташкилотлар

ўртасида шартномалар тузиш Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда — ЯИДХП) орқали амалга оширилади;

ушбу карор ижросини таъминлаш билан боғлик харажатларни молиялаштириш 2025 йилда Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчи сифатида Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигига ажратилган маблағлар доирасида амалга оширилади, 2026 йилдан бошлаб эса Давлат бюджети параметрларида назарда тутилади.

5. Рақамли технологиялар вазирлиги Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги билан биргаликда 2025 йил 15 сентябрга қадар ЯИДХПда кўрсатиладиган хизматнинг ҳар бир босқичида мурожаатлар кўриб чиқилишини кузатиб бориш тартибини жорий этсин.

6. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-хуқуқий ҳужжатларни икки ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирун.

7. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринbosари — иқтисодиёт ва молия вазири Ж.А. Кўчкоров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 14 июнь,
365-сон

Вазирлар Мажкамасининг
2025 йил 14 июнданги 365-сон қарорига
1-ИЛОВА

**Давлат умумий ўрта таълим ташкилотларида айрим
тоифадаги ўқувчиларни мактабдан ташқари таълимга жалб
қилиш тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом давлат умумий ўрта таълим ташкилотларида айрим тоифадаги ўқувчиларни қўшимча таълимга (касб-хунар, ахборот технологиялари, олий таълим ташкилотларига тайёрлаш йўналишидаги) жалб қилиш ҳамда уларни ўқитиш харожатларининг 80 фоизини Давлат бюджетидан қоплаб бериш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қўйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

айрим тоифадаги ўқувчилар (кейинги ўринларда — ўқувчи) — Камбағал оиласлар реестрига киритилган оиласларнинг умумий ўрта таълим ташкилотларида таълим олаётган фарзандлари;

тўгарак — электрон платформада мавжуд бўлган умумий ўрта таълим ташкилотларидаги дарслардан ташқари вақтларда касб-хунар, ахборот технологиялари, хорижий тил, умумтаълим фанлари йўналишларидаги, шу жумладан, 7 — 11 ёшдаги болалар учун дарсдан кейинги қўшимча таълим (узайтирилган кун гурухлари учун) бўйича мактабдан ташқари таълим;

тўгарак хизматларини таклиф этувчи ташкилот (кейинги ўринларда — таълим ташкилоти) — хорижий тил, ахборот технологиялари, умумтаълим фанлари, шу жумладан, 7 — 11 ёшдаги болалар учун дарсдан кейинги мактабдан ташқари таълим (узайтирилган кун гурухлари), касб-хунар йўналишларидан мактабдан ташқари таълим хизматларини кўрсатувчи электрон платформада рўйхатдан ўтган давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари, касб-хунар ўргатувчи марказлар ва якка тартибдаги тадбиркорлар;

электрон платформа — ўқувчилар учун тўгарак хизматларини таклиф этувчи ташкилот ва улардаги йўналишлар ҳақида маълумотлар базаси ҳамда ўқувчиларнинг тўгаракларга боришини мониторинг қилиш ва тўгарак харожатларини ҳисоблашга мўлжалланган ахборот тизими.

3. Ўқувчилар бир вақтнинг ўзида кўпи билан иккита тўгаракни танлаши ҳамда (таътил вақтлари билан бирга) 9 ойдан кўп бўлмаган даврда тўгаракка бориши мумкин.

Бунда ўқувчига умумий ўрта таълимни якунлагунга қадар ушбу Низомга мувофиқ имтиёздан икки мартагача фойдаланишларига рухсат этилади.

4. Таълим ташкилоти ўқувчиларнинг тўгарак машғулотларини олиб бориши учун барча зарур шароитларни яратади.

5. Таълим ташкилоти тўгарак вақтида ўқувчиларнинг хавфсизлиги, соғлифи, ижтимоий тенглигини таъминлашга масъул ҳисобланади.

6. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб этиш ҳамда уларни ўқитиш хара-

жатларининг 80 фоизини Давлат бюджетидан қоплаб бериш ушбу Низомга 1-иловада* келтирилган схемага мувофиқ амалга оширилади.

7. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб этиш тартиби ушбу Низомга 2 — 4-иловаларда* келтирилган ўқувчиларни тўгаракларга жалб этиш паспортларида акс эттирилади.

8. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги (кейинги ўринларда — Вазирлик) таълим ташкилотларида ташкил этилган тўгаракларнинг натижадорлигини ўқувчилар эришган ютуқлар асосида рейтинг тизимида баҳолайди ҳамда йил якунида натижаларни электрон платформада эълон қилиб боради.

2-боб. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб этишнинг мақсади ва вазифалари

9. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб этишнинг мақсади — уларнинг дарсдан бўш вақтларини мазмунли ўтказиш, қизиқишлирига мос бўлган тўгаракларга жалб этиш орқали шахсий ривожланиш кўникмаларини шакллантириш, касб-хунарга йўналтириш, хорижий тилларни ўрганишга жалб этиш орқали тил билиш кўникмаларини шакллантириш, жамиятда ўз ўрнига эга бўлишлари учун имкониятлар яратишдан иборат.

10. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб этишнинг вазифалари қўйидагилардан иборат:

ўқувчиларга дарсдан кейинги бўш вақтларида ўzlари қизиққан тўгаракларга боришилирига имконият яратиш;

электрон платформа орқали ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари учун тўгаракларни эркин танлаш имкониятини кенгайтириш;

тўгарак харажатларини белгиланган миқдорда Давлат бюджети ҳисобидан қоплаб бериш.

3-боб. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб қилиш

11. Ўқувчилар тўгаракларга ихтиёрийлик асосида жалб этилади.

12. Ижтимоий ходим ўқувчиларнинг тўгаракларга бўлган қизиқишлирини аниқлайди ҳамда тегишли хизматни оиласи камбағалликдан чиқариш бўйича ишлаб чиқиладиган индивидуал режага киритади.

13. Ўқувчиларнинг ота-оналари (қонуний вакили) (кейинги ўринларда — ариза берувчилар) ҳамда таълим ташкилотлари ўртасида шартномалар тузиш Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда — ЯИДХП) орқали амалга оширилади.

14. Ариза берувчилар давлат хизматларидан электрон шаклда фойдаланиши учун ЯИДХПда рўйхатдан ўтади.

Аризалар ЯИДХП орқали дам олиш ва байрам кунларидан қатъи назар, ҳар куни 24 соат давомида юборилиши мумкин.

Бунда аризалар иш вақтидан кейин ёки дам олиш ва байрам кунларида тушгандар, календарь бўйича навбатдаги иш куни аризаларнинг таълим таш-

* 1 — 4-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

килотларига тушган ва таълим ташкилотлари томонидан қабул қилинган кун деб ҳисобланади.

15. Ариза берувчиларнинг Камбағал оиласлар реестрига киритилганини электрон платформа орқали текширилади.

16. Ушбу Низомнинг 15-бандида назарда тутилган ҳолат тасдиқланганда, ўқувчи тўгаракларга жалб этилади.

17. Келиб тушган аризаларга асосан таълим ташкилотлари гурухларни шакллантирган куннинг ўзида шартномани тасдиқлайди.

Мазкур шартнома имзолаш учун электрон платформа орқали ариза берувчининг ЯИДХПдаги шахсий кабинетига юборилади.

Ариза берувчи уч иш куни ичida ЯИДХПдаги шахсий кабинетида келиб тушган шартномани тасдиқлайди.

18. Ота-оналар (қонуний вакил) фарзандларининг тўгаракларга боришлини учун шарт-шароит яратадилар.

19. 7 — 11 ёшдаги ўқувчиларнинг тўгаракларга жалб этилиши ва уларнинг қатновини тўгарак хизматларини таклиф этувчи умумий ўрта таълим ташкилоти директорининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, 12 — 18 ёшдаги ўқувчиларнинг тўгаракларга жалб этилиши ва уларнинг қатновини таълим ташкилоти жойлашган маҳалладаги ёшлар етакчиси назорат қилади.

20. Тўгарак хизматлари 7 — 11 ёшдаги ўқувчилар учун факат давлат умумий ўрта таълим ташкилотлари томонидан таклиф этилади.

21. Таълим ташкилотлари томонидан тўгаракни муваффақиятли тамомлаган ўқувчига тегишли хужжат (сертификат, маълумотнома) берилади.

4-боб. Электрон платформадан фойдаланиш

22. Электрон платформа ўқувчилар, уларнинг ота-оналари (қонуний вакили) ва таълим ташкилотларини ўзаро боғлайди.

23. Электрон платформада ўқувчиларнинг ота-оналарига (қонуний вакили) тўгаракларни танлаш ва улардан фойдаланиш учун сўров юбориш, таълим ташкилотларига тўгарак хизматларини тақдим этиш, кўрсатилган хизмат учун тўгарак тўловининг маълум қисмини қабул килиш, давоматни юритиш, Вазирликка мониторингни амалга ошириш имконияти яратилади.

24. Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги хузуридаги «Давлат ахборот тизимларини яратиш ва қўллаб-қувватлаш бўйича ягона интегратор — «UZINFOCOM» МЧЖ электрон платформанинг узлуксиз ишлашини таъминлайди.

25. Таълим ташкилотлари электрон платформадан рўйхатдан ўтиш орқали ўз хизматларини таклиф қилади.

26. Электрон платформадан рўйхатдан ўтиш учун таълим ташкилотлари қўйидаги маълумотларни киритади:

солик тўловчининг идентификация рақами (СТИР);

пул маблағлари қабул қилинадиган банкдаги ҳисобварафи;

тўгараклар номи, тури ҳамда тўлов микдори ва машрутларнинг давомийлиги тўғрисидаги маълумотлар;

Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги тизимидағи умумий ўрта таълим муассасаларида пуллик таълим хизматларини кўрсатиш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида» 2019 йил 22 апрелдаги 343-сон қарорига асосан ташкил этилган тўгараклар ҳақидаги маълумотларни электрон платформага жойлаштириш — умумий ўрта таълим ташкилотлари учун.

Таълим ташкилотларининг мактабдан ташқари таълим фаолияти билан шуғулланиши «Рақамли ҳукумат» тизимининг идоралароро интеграциялашув платформаси орқали аниқланади.

27. Таълим ташкилотида ўқувчиларнинг тўгаракларда иштирокининг ҳақиқий давомати шахсни биометрик идентификация қилиш технологияси ёки электрон платформанинг мобил иловаси орқали юритилади.

Бунда биометрик идентификация қилиш жараёни таълим ташкилоти томонидан ушбу ташкилотнинг жойлашуви (геолокацияси) ҳисобга олинган ҳолда ҳар бир тўгарак машғулотлари кунида бир маротаба амалга оширилади.

5-боб. Тўгарак тўловларини тўлаш

28. Таълим ташкилотлари томонидан кўрсатиладиган хизматлар бўйича бир нафар ўқувчига ҳар бир тўгарак учун бир ойлик тўлов қўйидаги миқдорлардан ошишига йўл қўйилмайди:

7 — 11 ёшдаги ўқувчилар учун дарсдан кейинги қўшимча таълим (узайтирилган кун гурухлари) учун базавий ҳисоблаш миқдорининг бир бараваридан;

12 — 18 ёшдаги ўқувчилар учун умумтаълим фанлари, 15 — 18 ёшдаги ўқувчилар учун хорижий тил йўналишларидаги тўгараклар учун базавий ҳисоблаш миқдорининг икки бараваридан;

15 — 18 ёшдаги ўқувчилар учун ахборот технологиялари, касб-хунар йўналишларидаги тўгараклар учун базавий ҳисоблаш миқдорининг тўрт бараваридан.

Бунда тўгаракка жалб қилинган ўқувчиларнинг тўгарак харажатлари ушбу оила Камбағал оиласлар реестридан чиқарилгандан кейин ҳам тўгарак якунлангунга қадар тўлаб берилади.

29. Тўгарак тўловининг 80 фоизи Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қопланади, 20 фоизи ўқувчининг ота-онаси (қонуний вакили) томонидан тўланади.

30. Тўгаракларнинг ойлик тўловлари суммаси ушбу Низомнинг 27-бандида белгиланган ўқувчиларнинг ҳақиқий давоматидан келиб чиқсан ҳолда электрон платформада автоматик равишда ҳисобланади.

Таълим ташкилоти раҳбари тўгаракларга қатнайдиган ўқувчилар давоматининг ҳаққонийлиги учун жавобгар ҳисобланади.

31. Қуйидаги ҳолатларда таълим ташкилотига тўгарак тўлови қоплаб берилмайди:

ушбу Низомнинг 26-бандида кўрсатилган маълумотлар ўз тасдифини топмагандা;

ўқувчиларнинг давомати таълим ташкилотининг жойлашув манзилидан (геолокацияси) бошқа жойда қайд этилганда;

таълим ташкилоти томонидан ўқувчиларнинг маълумотлари электрон платформага киритилиб, унинг фотосурати ўрнига бошқа боланинг фотосурати ушбу ахборот тизимиға жойлаштирилгани аниқланганда.

32. Тўгарак тўлови учун талабномалар таълим ташкилотлари кесимида электрон платформада автоматик тарзда шаклланади.

Вазирлик кейинги ойнинг ўнинчи санасига қадар электрон платформада автоматик тарзда шакллантирилган тўгарак тўлови учун талабномаларни молиялаштириш учун Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигига юборади.

33. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ўн иш куни ичидаги Давлат бюджетидан тўгарак тўловини молиялаштириш бўйича тақдим этилган талабномалар асосида зарур маблағларни туман (шаҳар) мактабгача ва мактаб таълими бўлимларида очилган алоҳида ҳисобварақларига қайта тақсимлайди.

34. Туман (шаҳар) мактабгача ва мактаб таълими бўлимлари уч иш куни ичидаги тегишли таълим ташкилотларининг шахсий ҳисобварақларига тўгарак тўловини белгиланган тартибда ўтказиб беради.

35. Ўтган давр учун тўланмаган ёки ортиқча тўланган тўгарак тўлови кейинги ойнинг тўгарак тўлови учун талабномаларни шакллантиришда инобатга олиниб, қайта ҳисоб-китоб қилинади.

Бунда таълим ташкилотларининг тўгарак учун шартнома муддатлари тураган ёки таълим ташкилоти хизмат кўрсатишни тўхтатган ҳолларда, ортиқча тўланган тўгарак тўлови таълим ташкилоти томонидан белгиланган тартибда Давлат бюджетига қайтарилади.

6-боб. Якунловчи қоидалар

36. Ўқувчиларни тўгаракларга жалб этишда юзага келадиган низолар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

37. Ўқувчиларнинг тўгаракларга жалб этилишига тўсқинлик қилишга йўл қўйилмайди.

38. Таълим ташкилотлари томонидан ўқувчиларни тўгаракларга мажбуран жалб этиш тақиқланади.

39. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 14 июндаги 365-сон қарорига
2-ИЛОВА

**Давлат умумий ўрта таълим ташкилотларида айрим
тоифадаги ўқувчиларни тўгаракларга жалб қилиш ва уларнинг
харажатларини қоплаб бериш бўйича электрон платформага
интеграция қилинадиган вазирлик ва идораларнинг
ахборот тизимлари
РЎЙХАТИ**

T/р	Маълумотлар номи	Тақдим этиш учун масъул вазирлик ва идора номи
1.	«Ягона миллий ижтимоий ҳимоя» ахборот тизими	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги
2.	UzASBO	Иқтисодиёт ва молия вазирлиги
3.	Шахсга доир маълумотлар	Ички ишлар вазирлиги хузуридаги Миграция ва персоналлаштириш департаменти
4.	Фойдаланувчига илгари тақдим этилган ЖШШИР (агар мавжуд бўлса) хақида маълумот	
5.	Мактабдан ташқари таълим фаолияти билан шуғулланувчи тадбиркорлик субъектлари	Адлия вазирлиги
6.	Ўқувчи таълим олаётган умумий ўрта таълим (мактаб ва бошқа) ташкилоти тўғрисидаги маълумотлар (ЖШШИР орқали)	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги
7.	Юридик шахсларнинг муассислари тўғрисидаги маълумотлар	Солиқ қўмитаси
8.	Репетиторлик фаолияти билан шуғулланувчи якка тартибдаги тадбиркорлар тўғрисидаги маълумот	
9.	Умумтаълим фанлари йўналишида тўгараклар ташкил этган ҳолда фаолият юритувчи ўзини ўзи банд қилган шахсларга оид маълумотлар	

Изоҳ. Заруратга кўра бошқа манфаатдор вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларига ҳам интеграция қилиниси мумкин.

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МУДОФАА ВАЗИРИНИНГ БҮЙРУГИ

291 **Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳарбий рўйхатга олишни ташкил этиш ва юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага ўзгартиришлар киритиш ҳақида***

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил
3 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3272-3*

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 7 сентябрдаги ЎРҚ-957-сон «Маъмурий ислоҳотлар доирасида таълим соҳасида давлат бошқаруви та-комиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонунни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 24 февралдаги ПФ-27-сон «Статистика ишларини ташкил этиш ва юритиш тизимини янги босқичга олиб чиқиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармонига мувофик **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси мудофаа вазирининг 2020 йил 6 июндаги 390-сон буйруғи (рўйхат рақами 3272, 2020 йил 30 июнь) (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.06.2020 й., 10/20/3272/1144-сон) билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳарбий рўйхатга олишни ташкил этиш ва юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага иловага мувофик ўзгартиришлар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Вазир

Ш. ХАЛМУХАМЕДОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 14 май,
494-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 3 июнда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
мудофаа вазирининг 2025 йил 14 майдаги
494-сон бўйруғига
ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳарбий рўйхатга
олишни ташкил этиш ва юритиш тартиби тўғрисидаги
йўриқномага киритилаётган ўзгартиришлар**

1. 2-банднинг иккинчи хатбошиси ва 39-банддаги «таълим муассасалари» деган сўзлар «таълим ташкилотлари» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

2. 4-банднинг иккинчи хатбошисидаги «олий таълим муассасаларининг» деган сўзлар «олий таълим ташкилотларининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

3. 14-бандда:

иккинчи хатбошидаги «Давлат статистика қўмитаси» деган сўзлар «Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

саккизинчи хатбошидаги «ўқув юртидан» деган сўзлар «таълим ташкилотидан» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

4. 23-банднинг саккизинчи хатбошиси қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«3-бандда олий ёки бошланғич профессионал, ўрта профессионал, ўрта маҳсус профессионал ёхуд ўрта маҳсус маълумотга эга бўлган шахслар учун таълим ташкилотининг тўлиқ номи, қайси йили ва қандай мутахассислик билан тамомлаганлиги кўрсатилади. Агар олий ёки бошланғич профессионал, ўрта профессионал, ўрта маҳсус профессионал ёхуд ўрта маҳсус таълим ташкилотини тамомламаган бўлса, қайси босқични (курс, синф) тугаллаганлиги кўрсатилади. Агар ҳарбий хизматга мажбурлар бир нечта таълим ташкилотини тамомлаган бўлса, у ҳолда энг юқори маълумот берадиган таълим ташкилоти кўрсатилади. Бошланғич профессионал, ўрта профессионал, ўрта маҳсус профессионал ва ўрта маҳсус таълим ташкилотларини тамомлаган шахслар учун ҳисоб варақасини тўлдиришда таълим ташкилотининг номи, қачон ва қандай мутахассислик бўйича тамомлаганлиги кўрсатилади, ўқувчиларга эса умумтаълим мактабининг қайси синфида, олий ёки бошланғич профессионал, ўрта профессионал, ўрта маҳсус профессионал ёхуд ўрта маҳсус таълим ташкилотининг қайси босқичида (курсида) таҳсил олаётганлиги кўрсатилади. Масалан: «умумтаълим мактабининг 11-синфида ўқийди» ёки «Тошкент давлат университетининг амалий математика факультетида 3-босқичда ўқийди», «Туризм колледжининг 2-босқичида ўқийди». Фақат умумтаълим маълумотига эга бўлганлар учун «умумтаълим мактабининг 11-синфини тамомлаган.».

5. 41-банддаги «ўқув муассасаларига» деган сўзлар «таълим ташкилотларига» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

6. 1-илованинг матнидаги «таълим муассасасининг» ва «таълим муассасини» деган сўзлар тегишли равишда «таълим ташкилотининг» ва «таълим ташкилотини» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

7. 2-илованинг матнидаги «таълим муассасаси» ва «таълим муассасалари» деган сўзлар тегишли равишда «таълим ташкилоти» ва «таълим ташкилотлари» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

8. 3-иловада:

а) номидаги «таълим муассасасидаги» деган сўзлар «таълим ташкилотидаги» деган сўзлар билан, «таълим муассасасининг» деган сўзлар «таълим ташкилотининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

б) Рўйхатни тузиш бўйича тушунтиришларда:

1-банддаги «таълим муассасасини» деган сўзлар «таълим ташкилотини» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

3-банддаги «таълим муассасалари» деган сўзлар «таълим ташкилотлари» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

9. 7-илованинг матнидаги «ўқув юртини» деган сўзлар «таълим ташкилотини» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI
 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
 ISTIQBOLLI LOYIHALAR MILLIY AGENTLIGINING
 QARORI

292 “Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi va investitsiya maslahatchisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
 3-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1782-5*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-noyabrdagi 635-son “Malaka sertifikatlarini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida”gi va 2024-yil 6-maydag'i 266-son “O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida”gi qarorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi va Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining 2008-yil 23-fevraldagi 299-V, 2008-05-son “Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi va investitsiya maslahatchisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga (ro'yxat raqami 1782, 2008-yil 2-aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 14-15-son, 105-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Markaziy bank raisi

T. ISHMETOV

Toshkent sh.,
 2025-yil 16-may,
 9/2-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 4-iyunda e'lon qilingan.

**Istiqlolli loyihalar milliy
agentligi direktori**

D. LI

Toshkent sh.,
2025-yil 15-may,
2-son

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil
16-maydagi 9/2-son hamda Istiqlolli loyihalar
milliy agentligining 2025-yil 15-maydagi
2-son qaroriga
ILOVA

**“Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya
vositachisi, investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi
va investitsiya maslahatchisi sifatida professional faoliyatni
amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash
haqida”gi qarorga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog'ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi PQ-726-son “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi hamda Istiqlolli loyihalar milliy agentligi **qaror qiladi:**”.

2. Nizomning 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka sertifikatini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-noyabrdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan Ayrim turdag'i malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona ma'muriy reglamentida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.”.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG'I

293 O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
4-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3627*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son "Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-fevraldagi 67-som "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. XUDAYAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 20-may,
9-som

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 4-iyunda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 20-maydag'i
9-son buyrug'iga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan
qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga
kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 28-apreldagi 10-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3430, 2023-yil 4-may) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2023-y., 10/23/3430/0253-son) bilan tasdiqlangan Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi to'g'risidagi nizomning 1-bandida:

ikkinchi xatboshidagi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markaziga" degan so'zlar "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi davlat muassasasiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi" degan so'zlar "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi davlat muassasasi" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 16-maydag'i 12-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3439, 2023-yil 5-iyun) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 10/23/3439/0331-son) bilan tasdiqlangan Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda:

1) 1-bandda:

ikkinchi xatboshidagi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi" davlat unitar korxonasiga (bundan buyon matnda Davlat markazi deb yuritiladi)" degan so'zlar "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi)" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

yigirmanchi xatboshidagi "Davlat markazining" degan so'zlar "Markazning" degan so'z bilan almashtirilsin;

2) 5-band, 26-bandning ikkinchi xatboshisi va 5-bobning nomidagi "Davlat markazining" degan so'zlar "Markazning" degan so'z bilan almashtirilsin;

3) 6-band, 45-bandning to'rtinchi xatboshisi va 47-banddagi "Davlat markazi" degan so'zlar "Markaz" degan so'z bilan almashtirilsin;

4) 7-bandda:

birinchi xatboshidagi "Davlat markazi" degan so'zlar "Markaz" degan so'z bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi "Davlat markaziga" degan so'zlar "Markazga" degan so'z bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi "Davlat markazining" degan so'zlar "Markazning" degan so'z bilan almashtirilsin;

- 5) 31-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Davlat markaziga” degan so‘zlar “Markazga” degan so‘z bilan almashtirilsin;
- 6) 1-ilovada:
- a) tadbirlar ustunida:
- 1, 8 va 17-pozitsiyalardagi “Davlat markaziga” degan so‘zlar “Markazga” degan so‘z bilan almashtirilsin;
- 2, 3-pozitsiyalardagi “Davlat markazining” degan so‘zlar “Markazning” degan so‘z bilan almashtirilsin;
- b) subyektlar ustunining 3 va 4-pozitsiyalaridagi “Davlat markazi” degan so‘zlar “Markaz” degan so‘z bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI

294 “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
4-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2570-2*

O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2014-yil 21-fevraldagi 4/4-son “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga (ro'yxat raqami 2570, 2014-yil 4-aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 14-son, 160-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Rais birinchi o'rinnbosari

N. SAYDULLAYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 2-may,
10/10-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 5-iyunda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
 Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil
 2-maydagi 10/10-son qaroriga
 ILOVA

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Qaror muqaddimasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-son "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**".

2. Nizomda:

a) 1-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"**kliring** — to'lov tizimi ishtirokchilarining pulga doir o'zaro talablari va majburiyatlarini yig'ish, taqqoslash hamda hisobga o'tkazish jarayoni;";

beshinchi xatboshi "mablag'larni oluvchilar" degan so'zlardan keyin ", shuningdek billing tizimi operatorlari" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"**billing tizimi operatori** — billing tizimi faoliyat yuritishi uchun javobgar bo'lgan, billing tizimining Kliring tizimi bilan o'zaro ma'lumot almashinuvini shartnomaga (bosh kelishuv) va texnik hujjatlar talablari asosida tashkil qilishga mas'ul bo'lgan tashkilot.";

b) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2. Mazkur Nizom talablari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Kliring tizimi orqali naqd pulsiz to'lovlarni amalgalash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.";

c) 4-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

d) quyidagi mazmundagi 4¹ — 4⁴-bandlar bilan to'ldirilsin:

"4¹. Kliring tizimiga ularish uchun billing tizimi operatori (bundan buyon matnda BTO deb yuritiladi) ushbu Nizomning ilovasida keltirilgan shakl asosida to'ldirilgan arizani ilova qilgan holda Markaziy bankka murojaat qilishi kerak.

BTO va Markaziy bank o'rtaqidagi munosabatlarning shartnomalar asosida hamda ma'lumot almashinuviga texnik hujjatlarga muvofiq amalgalash bilan to'ldiriladi.

4². BTOning arizasi Markaziy bank tomonidan o'n bank ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

BTOning arizasini o'rganish jarayonida Kliring tizimiga ularishni rad etish asoslari aniqlanmagan taqdirda, ABM BTOning arizasida keltirilgan ma'lumotlar asosida Kliring tizimi orqali to'lovlarni amalgalash uchun ushbu BTOning

billing tizimi va Kliring tizimi o‘rtasida qo‘llaniladigan ma’lumotnomalar tavsifi hujjati loyihasini tayyorlaydi va Markaziy bankka taqdim etadi.

Quyidagilar BTOning Kliring tizimiga ularish haqidagi arizasini rad etish asoslarini hisoblanadi:

1) BTOning arizasida nazarda tutilgan to‘lovlarni qabul qilishning qonunchilik hujjatlariga zid ekanligi;

2) BTOning arizasida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida Kliring tizimi bilan ma’lumot almashinuvini ta’minlashning texnik imkoniyati mavjud emasligi;

3) BTOning arizasida nazarda tutilgan to‘lovlarning amalga oshirilishi banklarning likvidligiga jiddiy salbiy ta’sir etishi yoki moliyaviy xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi mumkinligi.

BTOning arizasida keltirilgan ma’lumotlarning va BTOning billing tizimi orqali to‘lovlarni amalga oshirishning qonunchilikka muvofiqligi BTO zimmasiga yuklatiladi.

4³. BTOning Kliring tizimiga ularishini rad etish asoslarini aniqlanmagan taqdirda, Markaziy bank tomonidan BToga quyidagi hujjatlar yuboriladi:

1) Kliring tizimi va BTO billing tizimi o‘rtasida ma’lumot almashinuvini amalga oshirish tartibi belgilangan texnik hujjat;

2) Kliring tizimiga BTO billing tizimining ularishi, ushbu billing tizimi orqali to‘lovlarni amalga oshirilishi shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlarini hamda boshqa tashkiliy-huquqiy masalalarni o‘z ichiga oladigan shartnomani (bosh kelishuv) loyihasi;

3) BTOning billing tizimi va Kliring tizimi o‘rtasida qo‘llaniladigan ma’lumotnomalar tavsifi hujjati loyihasi.

4⁴. BTO Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni olganidan keyin o‘zining billing tizimi va Kliring tizimi o‘rtasida aloqani ta’minlashga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni Markaziy bankka taqdim etadi.

BTOning billing tizimi ishlashga tayyor bo‘lganda, BTO Kliring tizimi bilan ma’lumot almashinuvini boshlash sanasi haqida Markaziy bankni kamida besh bank ish kuni oldin xabardor qiladi.”;

e) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Kliring tizimi ishtirokchilari va BTOLar Kliring tizimi orqali ma’lumot almashinuvini shartlari belgilangan shartnomani qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish orqali tizim ishtirokchiligidan chiqishlari va (yoki) to‘lovlarni o‘tkazish bo‘yicha ma’lumot almashinuvini yakunlashlari mumkin.”;

f) 8¹-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

g) Mazkur o‘zgartirish va qo‘srimchalarning ilovasiga muvofiq tahrirdagi ilova bilan to‘ldirilsin.

O'zbekiston Respublikasi
 Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring
 tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi
 qarorga o'zgartirish va qo'shimchalarga
 ILOVA

"O'zbekiston Respublikasi
 Markaziy bankining hisob-kitoblar
 kliring tizimi to'g'risidagi nizomga
 ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga Billing tizimi
 operatoridan Kliring tizimiga ulanish to'g'risida
 ARIZA**

Billing tizimi operatori haqidagi quyidagi ma'lumotlar asosida Kliring tizimi orqali to'lovlar amalga oshirilishiga ruxsat berishingizni so'raymiz:

1. BTOning yuridik rekvizitlari:

- a) to'liq nomi: _____
- b) qisqartirilgan nomi: _____
- d) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): _____
- e) joylashgan joyi: _____
- f) pochta indeksi: _____
- g) elektron pochta manzili (e-xat, *.uz): _____
- h) telefon raqamlari: _____

2. Mablag'lar o'tkaziladigan bank rekvizitlari (ortiqchasi chiqarib tashlanadi):
 tijorat bankidagi bank hisobvarag'i;

yagona g'azna hisobvarag'i (byudjet tizimi shaxsiy g'azna hisobvaraqlari).

3. Faoliyat sohasi:

a) ko'rsatiladigan xizmat turi (ortiqchasi chiqarib tashlanadi):

- komunal xizmatlar;
- byudjet tashkiloti xizmatlari;
- telefon aloqasi;
- mahsulotlar yetkazib berish;
- internet;
- televide niye;
- bank operatsiyalari;
- elektron pullarni sotish;
- transport;
- davlat xizmatlari;
- ta'lif;
- nodavlat tashkilotlar xizmatlari;
- QR-online to'lovlar;
- jismoniy shaxslar uchun to'lovlar;
- boshqa: _____

b) ko'rsatiladigan xizmat haqida izohlar: _____

d) hududiy qamrovi (ortiqchasi chiqarib tashlanadi):
butun Respublika bo'ylab;

Toshkent shahri va Toshkent viloyati;
boshqa: ____ (hududlar nomi ko'rsatiladi) ____

1) e) abonent soni: _____ ming ta f) o'rtacha bir oylik to'lov summasi:
_____ mln so'm

4. Billing tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar:

a) billing tizimining mavjudligi: mavjud / mavjud emas

b) abonentlar ma'lumotlari yagona bazasining mavjudligi: mavjud / mavjud emas

d) ma'lumot almashinuvi uchun yagona veb-ilovaning mavjudligi: mavjud / mavjud emas

e) billing tizimi zaxira ma'lumotlar bazasining mavjudligi: mavjud / mavjud emas

f) billing tizimi zaxira serverining mavjudligi: mavjud / mavjud emas

g) billing tizimining asosiy serverdan zaxira serveriga ulanish imkoniyatining mavjudligi: mavjud / mavjud emas

h) billing tizimi ilova serverining manzili: _____

i) billing tizimi dasturiy ta'minotini yaratgan tashkilot nomi:

j) dasturiy ta'minotni takomillashtirish imkoniyati: mavjud / mavjud emas

5. Dastur yaratuvchining ma'lumotlari:

F.I.O: _____

elektron manzil: _____

telefon raqamlari: _____

6. Ma'lumot almashinuvi shartlari:

a) to'lov turlari bo'yicha qisman to'lovnini amalga oshirish imkoniyati bormi?: ha / yo'q

b) sana bo'yicha to'lovga nisbatan cheklov bormi?: ha (cheklov shartlarini izohlash kerak) / yo'q

d) to'lov summasiga nisbatan cheklov: minimal summa _____ so'm, maksimal summa _____ so'm, to'lov summasiga nisbatan cheklov belgilangan normativ-huquqiy hujjat normasi

e) billing tizimining qisqacha nomlanishi: _____

f) ____(billing tizimi nomi)____ billing tizimidagi to'lov turlari ro'yxati:

To'lov turi kodi	To'lov turi nomi (80 ta belgidan oshmasligi kerak)
01	
02	
...	
nn	

g) billing tizimida abonentni identifikatsiyalash uchun talab etiladigan rekvizitlar ro'yxati, har bir to'lov turi uchun alohida ko'rsatiladi:

M — rekvizit qiymatini ko'rsatishning majburiyligi ("+" yoki "-")

R — rekvizit qiymatini billing tizimiga yuboriladigan to'lovlardan ro'yxatida uzatishning talab etilishi ("+" yoki "-")

01 (<i>to'lov turi kodi</i>)		01-to'lov turi nomi (80 ta belgidan oshmasligi kerak)					
Rekvizit tartib raqami	Rekvizit nomi	Rekvizit belgisi	M	Ma'lumot turi (konstanta)	Rekvizit uzunligi	Izoh	R
1	Rekvizit	FIELD_1	+	C	N		+
2	Rekvizit	FIELD_2	-	C	N		-
...	C
n	Rekvizit	FIELD_n	-	C	N		-
...							
nn (<i>to'lov turi kodi</i>)		nn-to'lov turi nomi (80 ta belgidan oshmasligi kerak)					
Rekvizit tartib raqami	Rekvizit nomi	Rekvizit belgisi	M	Ma'lumot turi (konstanta)	Rekvizit uzunligi	Izoh	R
1	Rekvizit	FIELD_1	+	C	N		+
2	Rekvizit	FIELD_2	-	C	N		-
...	C
n	Rekvizit	FIELD_n	-	C	N		-

h) abonentni billing tizimida identifikatsiyalashda billing tizimidan qaytariladigan rekvizitlar ro'yxati, har bir to'lov turi uchun alohida ko'rsatiladi:

M — rekvizit qiymatini ko'rsatishning majburiyligi ("+" yoki "-")

R — rekvizit qiymatini billing tizimiga yuboriladigan to'lovlardan ro'yxatida uzatishning talab etilishi ("+" yoki "-")

01 (<i>to'lov turi kodi</i>)		01-to'lov turi nomi (80 ta belgidan oshmasligi kerak)					
Rekvizit tartib raqami	Rekvizit nomi	Rekvizit belgisi	M	Ma'lumot turi (konstanta)	Rekvizit uzunligi	Izoh	R
1	Rekvizit	FIELD_1	+	C	N		+
2	Rekvizit	FIELD_2	-	C	N		-
...	C
n	Rekvizit	FIELD_n	-	C	N		-
...							
nn (<i>to'lov turi kodi</i>)		nn-to'lov turi nomi (80 ta belgidan oshmasligi kerak)					
Rekvizit tartib raqami	Rekvizit nomi	Rekvizit belgisi	M	Ma'lumot turi (konstanta)	Rekvizit uzunligi	Izoh	R
1	Rekvizit	FIELD_1	+	C	N		+
2	Rekvizit	FIELD_2	-	C	N		-
...	C
n	Rekvizit	FIELD_n	-	C	N		-

i) billing tizimi bilan ma'lumot almashinuvi natijalari ro'yxati:

Kod	Xabar matni	Izoh
0	Muvaffaqiyatli	Konstanta
1	Xatolik haqida xabar	Xatolik turlarini raqamlash 1 dan
2	Xatolik haqida xabar	boshlanib o'sib borish tartibida
...	...	davom etishi kerak

7. Telekommunikatsiya vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar:

- a) billing tizimini aloqa operatorlari tarmoqlariga ulash imkoniyatining mavjudligi: mavjud / mavjud emas
- b) billing tizimi binosiga yaqin joylashgan avtomatlashtirilgan telekommunikatsiya tarmog'ining raqami: _____
- d) billing tizimidan avtomatlashtirilgan telekommunikatsiya tarmog'igacha optik tolali aloqa liniyasining mavjudligi: mavjud / mavjud emas

8. Qo'shimcha ma'lumotlar: _____
_____.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

295 O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 5-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3487-2

O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-yanvardagi 23-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 25-oktabrdagi 01/11-14/29-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3487, 2023-yil 28-dekabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2023-y., 10/23/3487/0991-son) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga ilovaga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi, Baholovchilar jamiyati hamda Baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

A. ORTIKOV

Toshkent sh.,
2025-yil 6-may,
01/14-11/38-son

Kelishildi:

*Baholovchi tashkilotlar
assotsiatsiyasi raisi*

A. ISLAMOV

2025-yil 5-may

Baholovchilar jamiyati direktori

F. MIRSOATOV

2025-yil 5-may

*Baholovchilar, ekspertlar va
maslahatchilar jamiyati raisi*

Z. NIGMANXANOV

2025-yil 5-may

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 9-iyunda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
 Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
 direktorining 2025-yil 6-maydag'i
 01/14-11/38-son buyrug'iiga
 ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standartiga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar

1. 5-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“15-son MBS “Transport vositalari qiymatini baholash”.”;

2. 9-bandning o'ttiz yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“retrospektiv baholash — baholovchi tomonidan o'tgan davrning tegishli sanasiga amalga oshirilgan baholash. Baholovchi baholash hisobotini tayyorlash jarayonida havola qilgan analoglar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar va ma'lumotlar baholash sanasiga to'g'ri kelishi kerak. Zaruratga ko'ra, analoglarning joriy narxlari normativ ma'lumotlarni (valyuta kursi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra) yoki indeksatsiya (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra) yoxud inflyatsiya (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra) inobatga olgan holda baholash sanasiga keltiriladi. Bunda, hisob-kitobda baholovchi baholanayotgan obyektning tasniflari va xususiyatlaridan kelib chiqib, eng mos normativ ko'rsatkichlardan birini tanlaydi va baholash to'g'risidagi hisobotida mazkur tanlovni asoslaydi. O'tgan davrning tegishli sanasiga analogning qiymatini aniqlash uchun analogning joriy qiymati baholash jarayonida baholovchi tomonidan tanlangan yuqoridagi ko'rsatkichlardan biri bo'yicha indeksatsiya qilinadi.”.

3. 255-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“255. Agar baholash to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to'g'risida”gi Qonuni talablariga, baholash faoliyati standartlariga, baholash faoliyati sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tuzilgan bo'lsa va isbotlovchi ahamiyatli ma'lumotlarga ega bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobot ishonchli deb e'tirof etiladi.”.

4. Quyidagi mazmundagi XV¹ bo'lim bilan to'ldirilsin:

“XV¹ bo'lim. Transport vositalari qiymatini baholash (15-son MBS)

1-bob. Umumiy qoidalari

1-§. Transport vositalarini baholashning qoidalari

605¹. “Transport vositalari qiymatini baholash” Milliy baholash standarti (bundan buyon matnda 15-son MBS deb yuritiladi) transport vositalari qiymatini baholash jarayoniga qo'yiladigan asosiy talablarni, shuningdek ushbu jarayonning xususiyatlarini belgilaydi.

605². Transport vositalari qiymatini baholash 1 — 7-son MBSlar talablari asosida amalga oshiriladi. 15-son MBS transport vositalari qiymatini baholashga

va ularga yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlashga doir qo'shimcha talablarni belgilaydi.

605³. Baholovchilar transport vositalari qiymatini baholashda YAMBSning 10-ilovasida keltirilgan metodikadan foydalanishlari mumkin.

605⁴. Mazkur MBS doirasida transport vositasi deganda yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish uchun mo'ljallangan qurilmalar tushuniladi (yengil avtomobillar, yuk avtomobillari, avtobuslar, tirkamalar va yarimtirkamalar, maxsus va ixtisoslashtirilgan mashinalarning shassisidagi avtomobillar, qishloq xo'jaligi va yo'l-qurilish texnikalari, mototexnikalar (motonaqliyotlar, mopedlar, skuterlar va h.k.) va velosipedlar).

605⁵. Transport vositalari tarkibiga transport vositasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan mashinalar kiritilmaydi.

605⁶. 15-son MBS bilan baholanadigan baholash obyektlariga quyidagilar kiradi:

bir birlik transport vositasi;

transport vositasining qismlari, uzellari, agregatlari, detallari va boshqa komponentlari.

2-§. Baholashga oid vazifani belgilash

605⁷. Baholashga oid vazifa 2-sonli MBS talablariga muvofiq tuziladi.

Transport vositasi qiymatini baholashda basharti baholashni o'tkazish uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatda yoki baholash shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'limsa, uning bozor qiymati aniqlanadi.

Bozor qiymatidan farq qiladigan qiymat turini aniqlash zarur bo'lgan hollarda qiymatni qo'llash va turini aniqlash sabablari baholash to'g'risidagi hisobotda asoslangan, olib berilgan va bayon qilingan bo'lishi kerak.

Qiymat turlarini aniqlashda baholovchi 5-son MBS talablariga amal qilishi kerak.

Shikastlangan transport vositalarini baholashda baholovchi shikastlangan transport vositalarining ta'mirlash (tiklash) qiymatini va transport vositasiga yetkazilgan zarar miqdorini hamda ularning tovar qiymatini yo'qotishni aniqlaydi.

Baholash obyektlarining bozor qiymatini aniqlashda ularning oldi-sotdisi bilan bog'liq taskhiliy tadbirlarga (ommaviy savdolar, reklama va boshqalar) xaratjatlar hisobga olinmaydi.

3-§. Axborotni to'plash va tahlil qilish

605⁸. Baholovchi baholash obyekti haqidagi axborotni va bozor axborotini to'plash hamda tahlil qilishni baholash yondashuvlari va usullarini tanlash va qo'llash uchun yetarli bo'lgan hajmda amalga oshiradi.

605⁹. Baholash obyekti haqidagi dastlabki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

buyurtmachi yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan taqdim etiladigan dastlabki axborot;

baholovchi tomonidan baholash obyektini ko‘zdan kechirish chog‘ida olingan axborot;

uchinchi shaxslar va tashkilotlardan olingan, shuningdek ommaviy axborot vositalarida va internet tarmog‘ida e’lon qilingan axborot.

605¹⁰. Buyurtmachi yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan zaruratga ko‘ra taqdim etilishi mumkin bo‘lgan dastlabki axborot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

baholash obyektining oxirgi hisobot sanasi holatidagi balans qiymati va amortizatsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

huquqni belgilovchi hujjatlar;

baholash obyektining texnik va konstruktiv tavsiflarini o‘z ichiga olgan hujjatlar;

baholash obyektining texnik holati haqidagi dalolatnoma;

baholash obyektining tarkibidagi baholanishi kerak bo‘lgan qo‘srimcha butlovchilar (agar bo‘lsa) haqidagi ma’lumotlar;

baholash obyektiga bo‘lgan huquqlarning cheklowlari (cheklanishlari) haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar.

Baholashning maqsadi va baholash obyekti xususiyatlari qarab, baholovchi buyurtmachidan baholash uchun zarur bo‘lgan boshqa axborotni so‘rab olishga haqli.

605¹¹. Transport vositasini ko‘zdan kechirish buyurtmachi yoki mulkdorning rasmiy vakili bilan birga o‘tkaziladi. Baholovchi baholash obyektini ko‘zdan kechirganda, uni identifikasiya qiladi.

605¹². Buyurtmachi taqdim etgan, shuningdek ishlarni bajarishga jalb qilingan uchinchi shaxslardan olingan axborot, agar u rahbar (mulkdor)ning imzosi hamda axborotni bergen tashkilot (yuridik shaxslar uchun) muhri bilan tasdiqlangan bo‘lsa, ishonchli hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalaridan, internet tarmog‘idan, so‘rov, suhbat natijalaridan va boshqa shunga o‘xshash manbalardan olingan ma’lumotlar, agar ushbu ma’lumotlarning tegishli manbalari baholash to‘g‘risidagi hisobotda ko‘rsatilgan bo‘lsa, ishonchli hisoblanadi.

Buyurtmachi baholash obyekti va baholovchiga taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riliqi uchun javobgardir.

605¹³. Zarur bo‘lgan hollarda baholovchining so‘roviga ko‘ra, hujjatlarni taqdim etgan shaxs tegishli hujjatlarga tushuntirishlar (izohlar)ni qo‘srimcha ma’lumotnomalar ko‘rinishida rasmiylashtiradi.

4-§. Baholash obyektini identifikasiya qilish

605¹⁴. Baholash obyektini identifikasiya qilish (baholash obyekti holati tavsiflarini aniqlash) baholash obyektini tashqi ko‘zdan kechirish o‘tkazish (bundan buyon matnda ko‘zdan kechirish deb yuritiladi) hamda ro‘yxatga olish hujjatlarini (avtomototransport ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani, boshqa tasdiqlovchi rasmiy hujjatlarni) o‘rganish va transport vositadagi mavjud identifikatsion raqamlar bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

605¹⁵. Baholash obyektini identifikasiya qilish quyidagilarni nazarda tutadi:

baholash obyektining jismonan mavjudligini va unga bo‘lgan huquqni belgilovchi hujjatlarni aniqlash;

baholash obyektiga bo‘lgan mulk huquqlarining turini aniqlash;

baholash obyektining texnik tavsiflari (turi, rusumi, modeli, modifikatsiyasi, ishlab chiqaruvchi haqidagi ma’lumotlar, ishlab chiqarilgan yili, kuzov (shassi) identifikatsion raqami, kuzov turi (kabinalar — yuk mashinalari va traktorlar uchun, platformlar — tirkama uchun), o‘rindiqlar, eshiklar soni, dvigatelning raqami, turi, ishchi hajmi, silindrлari soni va kuchi, uzatgich qutisi (transmissiya) turi, rangi va bo‘yash turi, butlovchilari haqidagi ma’lumotlar);

baholash obyektini ro‘yxatga olish tavsiflari (ro‘yxat raqami, texnik pasport seriyasi va raqami, ular bo‘lmagan taqdirda hisobvaraq-ma’lumotnoma, oldi-sotdi shartnomasi);

baholash obyektining holati ko‘rsatkichlari (butlanishining mosligi, spidometr ko‘rsatkichlari bo‘yicha yurilgan masofa, ishlab berilgan motoresurs, ish davomiyligi, transport vositasining umumiy holati, uzellar va agregatlarning ishga yaroqliligi, ko‘rikdan o’tkazishdan oldin olib borilgan ta’mirlash ta’sirlari (ishlari) yoki transport vositasining kapital ta’mirlangan yoki almashtirilgan qismlari);

baholash obyekti shikastlanishlari tavsiflari (shikastlanishlar, deformatsiyalar turi, o‘lchamlari va zonalari).

2-bob. Transport vositalari qiymatini baholashda baholash yondashuvlari va usullarini qo’llash

1-§. Baholash yondashuvlari va usullarini tanlash, asoslash va qo’llash

605¹⁶. Baholash obyektini baholashda baholovchi qiyosiy, daromad va xarajat yondashuvlaridan birini qo’llaydi.

605¹⁷. Baholovchi har bir baholash yondashuvi doirasida baholash usullarini baholashning maqsadi, aniqlanadigan qiymat turi, baholash obyekti xususiyatlari, chekllovchi shartlar, axborot bazasi va uning to‘liqligini hisobga olgan holda tanlaydi.

2-§. Qiyosiy yondashuv

605¹⁸. Qiyosiy yondashuv analog-obyektlarning bozor qiymatlari to‘g‘risidagi axborotga va ularning qiymatini qiyoslash elementlari bo‘yicha tuzatishga asoslangan hisoblash usullari yig‘indisidan iborat. Analog-obyektlarning bozor qiymatlari deganda bitimlar va takliflar narxlari tushuniladi.

605¹⁹. Baholash obyekti qiymatini qiyosiy yondashuv bilan aniqlash uchun baholovchi quyidagi usullardan birini qo’llaydi:

sotuvlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qiyoslash usuli;

statistik tahlil usullari (korrelyatsion-dispersion, regression).

605²⁰. Sotuvlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qiyoslash usuli analog-obyektlarning sifat tavsiflarini qiyoslashga hamda qiyoslash elementlari bo‘yicha aniqlangan farqlar

qismida tuzatishlar kiritish yo‘li bilan baholash obyekti qiymatini aniqlashga asoslangan hisob-kitoblar yig‘indisidan iborat bo‘lib, quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

bozorni o‘rganish, analog-obyektlar bo‘yicha axborot to‘plash va tahlil qilish; analoglarni tanlash;
 qiyoslash birligini belgilash;
 qiyoslash elementlarini tanlash;
 qiymatni hisoblash usullarini tanlash;
 qiyoslash elementlari bo‘yicha tuzatishlarni hisoblash;
 analog-obyektlar narxlari (qiymati)ni tuzatish;
 baholash obyekti qiymatini aniqlash.

605²¹. Quyidagilar asosiy qiyoslash birliklari hisoblanadi:
 kuzov turi;
 quvvat birligi;
 transport vositasining birligi.

605²². Quyidagilar asosiy qiyoslash elementlari hisoblanadi:
 transport vositasining turi, rusumi, modeli, yo‘lovchi sig‘imi, yuk ko‘tarish sig‘imi, vazni, hajmi, dvigatel quvvati;
 ishlab chiqarilgan yili, yurgan masofasi va texnik holati;
 jihozlanishi va boshqa qiyoslash elementlari.

605²³. Sotuvlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qiyoslash usuli quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

mahalliy va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sstligi (MDH) mamlakatlarida ishlab chiqarilgan transport vositalari uchun — baholash obyektiga analog bo‘lgan kamida uchta transport vositasi mavjud bo‘lganda (bunda ishlab chiqarilishi to‘xtatilgan transport vositalarga nisbatan kamida ikkita);

xorijda (MDH mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarda) ishlab chiqarilgan transport vositalari uchun — baholash obyektiga analog bo‘lgan kamida ikkita transport vositasi mavjud bo‘lganda.

605²⁴. Statistik tahlil usullari baholash obyektining narxi bilan baholash obyektining narxiga ta’sir qiluvchi parametrlar o‘rtasidagi statistik (korrelyatsion-dispersion, regression) bog‘liqliklarni aniqlashga asoslanadi.

3-§. Daromad yondashuvi

605²⁵. Daromad yondashuvi tijoratda foydalaniladigan baholash obyektidan olinadigan kelgusidagi daromadlar yig‘indisi sifatida uning joriy qiymatini aniqlashga asoslanadi.

605²⁶. Mazkur MBS doirasida daromad yondashuvi usullaridan quyidagi hollarda foydalanilishi mumkin:

qiyoziy va xarajat yondashuvlari usullarini qo‘llash imkonini bo‘limganda;
 agar baholash obyekti ishlab chiqarish siklida o‘zi mustaqil barqaror daromadni shakllantiradigan maxsus va (yoki) ixtisoslashtirilgan texnika bo‘lsa;
 agar baholash obyekti daromadni shakllantiradigan jamoat yoki noyob (raritet) transport vositasi bo‘lsa.

605²⁷. Baholash obyekti qiymatini baholashda daromad yondashuvining

to‘g‘ridan to‘g‘ri kapitallashtirish usuli qo‘llaniladi va baholash qiymati sof operatsion daromad ko‘rsatkichlarini kapitalizatsiya stavkasiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

605²⁸. Baholovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri kapitallashtirish usulidan foydalanganda: kapitallashtiriladigan sof operatsion daromad qiymatini hisoblab chiqishi; kapitallashtirish stavkasini hisoblashi; baholash obyektining joriy qiymatini aniqlashi lozim.

605²⁹. Kapitallashtirish stavkasi kumulyativ qurish usuli va bozor ekstraksiyasi usuli yordamida hisoblanadi.

605³⁰. Sof operatsion daromadni aniqlash uchun baholovchi operatsion xarajatlar yoki xizmatlarni ko‘rsatishda (ishlarni bajarishda) transport xizmatlarining tannarxi baholash obyektiga operatsion xarajatlar asosida baholash obyektidan foydalanishdan olinadigan sof operatsion daromadni hisobga olgan holda baholash obyektni ijara berishdan keladigan pul tushumlaridan foydalanadi.

605³¹. Sof operatsion daromad baholash sanasi yildan keyingi to‘liq yil uchun o‘rtacha yillik qiymat miqdorida aniqlanadi. Bunda, baholovchi prognozlarda narxlarning o‘zgarishini hisobga olgan holda, ijara stavkalari yoki transport xizmatlari (ishlar) qiymati o‘zgarishini hisobga olishi kerak.

4-§. Xarajat yondashuvi

605³². Xarajat yondashuvi transport vositasi qiymatini uni tiklash, ishlab chiqarish yoki almashtirish uchun zarur xarajatlar qiymatidan jami eskirishni chegirib tashlash orqali aniqlashga asoslanadi.

605³³. Qiymatni xarajat yondashuvi bilan hisoblash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- to‘liq tiklash — ishlab chiqarish qiymati yoki almashtirish qiymatini aniqlash;
- baholash obyektiga o‘rnatalgan, baholash obyektining zavod komplektatsiyasiga kirmaydigan qo‘srimcha jihozlanish qiymatini aniqlash (zarur bo‘lganda);
- baholash obyektiда mavjud bo‘lgan nuqsonlarni va nosozliklarni bartaraf etish qiymatini aniqlash (zarur bo‘lganda);
- baholash obyektining jamlangan eskirish miqdorini aniqlash;
- baholash obyekti qiymatini to‘liq takror ishlab chiqarish qiymati yoki almashtirish qiymati bilan (qo‘srimcha uskunaning qiymatini va baholash obyektiда mavjud bo‘lgan nuqsonlarini va nosozliklarni bartaraf etish qiymatini hisobga olgan holda) jamlangan eskirishning qiymati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlash.

605³⁴. To‘liq takror ishlab chiqarish qiymati yoki almashtirish qiymati quyidagi usullardan biri yordamida aniqlanadi:

- bilvosita usul;
- almashtirish usul;
- qiymatni indeksatsiyalash usul.

Jamlangan eskirish jismoniy, funksional (ma’naviy) va iqtisodiy (tashqi) eskirish hamda eskirish yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

605³⁵. Mavjud axborotdan kelib chiqqan holda transport vositasining jismoniy eskirishi quyidagi usullardan biri yordamida aniqlanadi:

statistik mezonlar usuli;
 normativ eskirish usuli;
 foydalanish boshlangandan boshlab xronologik yosh va bosib o'tgan masofasi/
 ishlagan vaqtini inobatga olishga oid jismoniy eskirish usuli;
 transport vositasi, shuningdek ularning tarkibiy qismlari uchun tabiiy
 jismoniy eskirish usuli;
 texnik holatini tavsiflovchi usuli.

605³⁶. Funksional eskirish — avtomobil sanoatidagi ilmiy va texnologik taraqqiyot, ishlab chiqarish, import, tovar bozorlari va transport vositalarining ishlashiga davlat tomonidan qo'yilgan cheklovlar, transport vositalarini ishlab chiqarishni tugatish, shu jumladan, ular uchun ehtiyoj qismlar ishlab chiqarishni to'xtatish va boshqa omillar ta'sirida foydaliligining pasayishi tufayli transport vositasining qiymatining nisbiy pasayishidan iborat.

605³⁷. Iqtisodiy (tashqi) eskirish — bozor konyunkturasining baholanayotgan obyektga salbiy ta'siri natijasida baholanayotgan obyekt qiymatining pasayishidan iborat.

3-bob. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish

605³⁸. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish 6-sod MBS talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

605³⁹. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish turli baholash yondashuvlari yordamida olingan baholash natijalari uchun qiyoslash choralarini belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda, baholovchi quyidagilarni hisobga olishi kerak:

baholashning maqsadi hamda baholash natijalaridan mo'ljallanayotgan foydalanish;

baholash obyektining xususiyati;

qiymat turi;

baholash yondashuvlarini qo'llaganda foydalilaniladigan axborotning miqdori va sifati.

605⁴⁰. O'lchovlarni kelishish va qiyoslash usullarini tanlashda baholovchining barcha farazlari va taxminlari baholash to'g'risidagi hisobotda asoslab berilgan bo'lishi kerak.

4-bob. Shikastlangan transport vositalari qiymatini baholash hamda transport vositalariga yetkazilgan zararni aniqlash xususiyatlari

1-§. Shikastlangan transport vositalari qiymatini baholashning umumiy qoidalari

605⁴¹. Transport vositalari shikastlanishining asosiy sabablari yo'l-transport hodisalari, ishlab chiqarishdagi yirik avariylar, tabiiy ofatlar, zilzilalar, sel, qulashlar, toshlar o'pirilishi, ko'chkilar, toshqinlar, suv bosishi, shuningdek transport vositasining shikastlanishiga olib kelgan qasddan yoki qasddan bo'limgan (ehtiyoitsizlik oqibatidagi) harakatlar bo'lishi mumkin.

605⁴². Shikastlanishdan zarar (moddiy zarar) — transport vositasining olingan shikastlanishlar natijasida arzonlashish qiymati yoki uni tiklashga qilingan xarajatlar miqdori hisoblanadi. Zarar transport vositasi qiymatining shikastlanish oqibatida haqiqiy yo'qotilishi yoki shikastlangan transport vositasini uning shikastlanishdan bevosita oldingi texnik holatigacha tiklashga ketgan xarajatlar hamda uni tiklash bo'yicha ishlar olib borish natijasida uning qiymati yo'qotilishi miqdori (tovar qiymatining yo'qotilishi) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Bunda, moddiy zarar miqdoriga quyidagilar kiradi:

ta'mirlash uchun zarur bo'lgan materiallarning qiymati;

ta'mirlash jarayonida ularning eskirishini hisobga olgan holda almashtiriladigan ehtiyyot qismlarining qiymati;

ta'mirlash ishlari uchun xarajatlar, shu jumladan ustalarning ish haqi xarajatlari;

ta'mirlash bilan bevosita bog'liq xarajatlar va qo'shimcha xarajatlar (ish soatlarining umumiy qiymati).

tovar qiymatining yo'qotilishi qiymati.

Yo'qotilgan daromad (boy berilgan foyda) ushbu MBS doirasida aniqlanmaydi.

605⁴³. Ta'mirlash (tiklash) qiymati — transport vositasi shikastlanishlarini bartaraf etish qiymati hisoblanadi.

605⁴⁴. Tovar qiymatining yo'qotilishi qiymati — transport vositasida mavjud bo'lgan nuqsonlar yoki ularni bartaraf etish izlari mavjudligi yoki nuqsonlar bartaraf etilganligi to'g'risida ishonchli ma'lumotlar mavjudligi sababli transport vositasining iste'mol xususiyatlarining yomonlashishi natijasida transport vositasi (mahsulot) qiymatining pasayishi hisoblanadi.

Bunda, tovar qiymatining yo'qotilishi transport vositasi ta'mirlash (tiklash) bo'yicha ishlar bajarilgandan keyin uning geometrik parametrlaridagi, konstruktiv materiallar fizik-kimyoiy xossalalaridagi va ish jarayonlari tavsiflaridagi qaytmas o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi.

605⁴⁵. Baholovchi oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun buyurtmachi transport vositasi baholovchiga ko'zdan kechirish uchun taqdim etadi.

605⁴⁶. Baholovchi tomonidan ko'zdan kechirish natijasida baholash uchun zarur bo'lgan baholash obyektining shikastlanishlari va nuqsonlari haqidagi, shu jumladan quyidagi ma'lumotlar:

transport vositasini identifikasiya qilish, transport vositasi va uning agregatlari raqamlarining taqdim etilgan hujjatlardagi (ro'yxat raqami, identifikasiyalash raqami (VIN — transport vositasining 17 ta belgidan iborat noyob kodi), kuzov raqami, rama yoki shassi raqami, dvigatel raqami va h.k.) yozuvlarga mosligi;

transport vositasining odometr bo'yicha yurgan masofa ko'rsatkichi, aks ettirilgan kattalikning ishonchliliginibaholagan holda;

transport vositasining jihozlanishi, qo'shimcha uskunalarning mavjudligi;

uzellar, agregatlar va qimmatbaho butlovchi qismlar almashtirilganligi yoki almashtirilmaganligi;

transport vositasida ekspluatatsion shikastlanishlar, nuqsonlarning mavjudligi;

yo'l-transport hodisasi yoki boshqa hodisa natijasida vujudga kelgan

shikastlanishlar, nuqsonlarning mavjudligi, turi, murakkabligi, xarakteri, ularning o'lchamlari va joylashuvi;

transport vositasining kuzovi ilgari ta'mirlanganligi, uning hajmi, xarakteri va sifati;

aniqlangan shikastlanishlar, nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyati va usullari;

aniqlangan shikastlanishlar, nuqsonlarning mazkur yo'l-transport yoki boshqa hodisalarga muvofiqligi;

tiklash yoki ta'mirlash ishlarini bajarish mumkinligi, har bir alohida agregat, uzel, detallar bo'yicha ularni bajarish usullari va hajmi;

transport vositasini tiklash uchun zarur ehtiyoq qismlari ro'yxati aniqlanadi va ko'zdan kechirish dalolatnomasiga kiritiladi.

Ko'zdan kechirishni o'tkazish chog'ida aniqlanadigan shikastlanishlarni aniq qayd etib, fotosuratga olish kerak. Transport vositasining umumiy ko'rinishlari fotosuratlaridan keyin alohida shikastlangan elementlarning uzelli va detalli fotosuratlari joylashtiriladi.

605⁴⁷. Transport vositasini ko'zdan kechirish natijalarini baholovchi baholash hisobotining tadqiqot qismida aks ettiradi. Transport vositasini ko'zdan kechirish natijasida qayd etilgan ma'lumotlar baholovchiga qo'yilgan baholashga oid vazifalarga muvofiq hisob-kitoblarni amalga oshirishni boshlash imkonini beradi.

2-§. Shikastlangan transport vositalari qiymatini baholash

605⁴⁸. Transport vositasining shikastlanishidan ko'rilgan zarar miqdorini hisoblashda tiklovchi ta'mirlash usulidan foydalangan holda xarajat yondashuvi qo'llaniladi.

605⁴⁹. Qayta tiklash ta'mirlashi — bu transport vositasining bevosita shikastlanishiga qadar bo'lgan holatigacha tiklash uchun zarur ishlar majmuasidir.

605⁵⁰. Shikastlangan transport vositasini tiklash bo'yicha amalga oshirish zarur bo'lgan ishlar ro'yxatini belgilash mazkur rusumdag'i transport vositasini ta'mirlash bo'yicha texnologik hujjatlar talablarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

605⁵¹. Ta'mirlash ishlarining hajmi, turlari va uslublari baholovchi tomonidan alohida detallarning shikastlanishi, (korrozion yemirilishi)ning xarakteri va darajasiga qarab, ularni ajratish/yig'ish, moslash, sozlash, bo'yash, korroziyaga hamda shovqinga qarshi ishlov berish va boshqalarni hisobga olgan holda transport vositasini ishlab chiqargan korxona tomonidan belgilangan ta'mirlash texnologiyasiga muvofiq, tayyorlovchi korxonaning ta'mirlash texnologiyasi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa mavjud analoglar va tayyorlovchi korxonalarining rasmiy vakolatxonalari ma'lumotlari bo'yicha ushbu ehtiyoq qismlarning texnik holatiga baho berish yo'li bilan belgilanadi.

605⁵². Baholovchi agregat, uzel, detallarni tiklashning texnik imkoniyati bo'lmaganda yoki uni tiklash iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'lmaganda, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga, tarmoq normativlari va ishlab chiqaruvchi korxonalar normativlariga (mavjud bo'lgan taqdirda) asoslangan holda ularni almashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

605⁵³. Transport vositasining detallar, uzellar, agregatlar narxini aniqlashda

hamda baholash hisobotini tuzishda baholovchi ishlab chiqaruvchi korxonalarining rasmiy vakolatxonalaridagi original ehtiyyot qismlar va materiallar narxlaridan, ularning mazkur mintaqada shakllangan o‘rtacha bozor narxlaridan, bunday ma’lumotlar bo‘lmagan taqdirda chakana narxlardan kelib chiqishi kerak.

605⁵⁴. Shikastlangan transport vositasini tiklash uchun zarur ta’mirlash ishlariiga haq to‘lash uchun xarajatlар transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash bo‘yicha ishlarni tartibga soladigan amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga (transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashning mehnat sig‘imi normativlari (ish soatlari), transport vositasini joriy ta’mirlash bo‘yicha qo‘llanmalar, transport vositasini joriy ta’mirlash texnologiyalari va boshqalar) muvofiq aniqlanadi.

605⁵⁵. Agar ayrim ishlar turlariga normativlar belgilanmagan bo‘lsa, transport vositasining ta’mirlash ish soatlari transport vositasining analogini tanlash yo‘li bilan, transport vositasining turi, rusumi va ishlab chiqarilgan sanasini hisobga olib analog transport vositalariga tegishli ish soatlaridan foydalanish mumkin.

Shikastlangan transport vositasini tiklash uchun zarur bo‘lgan ishlarning baholash sanasidagi bir ish soati qiymati tanlanma kuzatuv natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

605⁵⁶. Tanlanma kuzatuv transport vositasini baholash joyida transport vositalarini ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar bozori doirasida olib boriladi. Bunda, ish soatlarining qiymati transport vositasini ta’mirlash bo‘yicha ustaxonalaridan olingan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi, agar mintaqada bunday ustaxonalar mavjud bo‘lmasa, analog transport vositalarini ta’mirlash ustaxonalaridagi qiymatlar qabul qilinadi.

605⁵⁷. Transport vositasini yangilash ehtimolligini hisobga olib, uni tiklash xarajatlari va tovar qiymatining qo‘sishimcha yo‘qotilishi alohida hisoblanadi hamda baholash to‘g‘risidagi hisobotda alohida bobda keltiriladi.

3-§. Shikastlangan transport vositalarining tovar qiymati yo‘qotilishini baholash

605⁵⁸. Tovar qiymatining yo‘qotilishi qiymati transport vositalarini ta’mirlashdan oldin yoki keyin aniqlanishi mumkin.

605⁵⁹. Transport vositasi tovar qiymatining yo‘qotilishini hisoblash ko‘zdan kechirishda aniqlangan quyidagi ta’mirlash turlarini amalga oshirish zarurati tug‘ilganda hisoblanishi mumkin:

 kuzovning qiyshiqligini bartaraf etish;

 kuzovning yechilmaydigan elementlarini almashtirish (to‘liq yoki qisman);

 kuzovning alohida (yechiladigan yoki yechilmaydigan) elementlarini (shu jumladan plastik kopot, qanotlar, eshiklar, yukxona eshigini) ta’mirlash;

 kuzov va bamperlarning tashqi yuzalarini to‘liq yoki qisman bo‘yash;

 salonni, uning zavodda yig‘ilgan sifatini buzilishi bois, to‘liq demontaj qilish”.

5. Mazkur qo‘sishimcha va o‘zgartirishlarning ilovasiga* muvofiq tahrirdagi 10-ilova bilan to‘ldirilsin.

* Ilova «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da e’lon qilingan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGINING
QARORI

296 Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalash-tirilgan tizimini tashkil etish to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
5-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1781-5*

O'zbekiston Respublikasining “Fermer xo'jaligi to'g'risida” va “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008-yil 21-yanvardagi 1 va 1/2-son qarori (ro'yxat raqami 1781, 2008-yil 26-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 12-13-son, 81-modda) bilan tasdiqlangan Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va O'zbekiston fermerlari kengashi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 8-may,
257-son

Qishloq xo'jaligi vaziri

I. ABDURAHMONOV

Toshkent sh.,
2025-yil 7-may,
31-son

Kelishildi:

*Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar
huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi H. TURAXUJAYEV*

2025-yil 28-aprel

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 7-iyunda e'lon qilingan.

*O'zbekiston fermerlari kengashi raisi**A. XAITOV**2025-yil 23-aprel*

O'zbekiston Respublikasi
 Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil
 8-maydagi 257-son va Qishloq xo'jaligi
 vazirligining 2025-yil 7-maydagi 31-son qaroriga
 ILOVA

**Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan
 tizimini tashkil etish to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan
 o'zgartirishlar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish va ular tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish tartibini belgilaydi.”.

2. 8-banddagи “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanushi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 1297, 2004-yil 14-yanvar)” degan so'zlar “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3538, 2024-yil 30-iyul)” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. 11-banda:

birinchi xatboshidagi “schyotlar Rejasini” va “schyotlar” degan so'zlar tegishli ravishda “hisobvaraqlar rejasini” va “hisobvaraqlar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Fermer xo'jaliklari xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi hisobvaraqlar rejasini O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) “Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi”ga (ro'yxat raqami 3593, 2024-yil 27-dekabr) va ushbu nizomning 1-ilovasida keltirilgan Fermer xo'jaliklarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi namunaviy Hisobvaraqlar rejasiga muvofiq tuzadi. Xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi hisobvaraqlar rejasi fermer xo'jaligining hisob siyosatida qonunchilikda belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim.”.

4. 16-banddagи “schyotlarda” degan so'z “hisobvaraqlarda” degan so'z bilan almashtirilsin.

5. 18-banddagи “schyotlar” va “buxgalteriya schyoti uchun aniq buxgalteriya schyotlari” degan so'zlar tegishli ravishda “hisobvaraqlar” va “buxgalteriya hisobvarag'i uchun aniq buxgalteriya hisobvaraqlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

6. 19-banddagи “schyotlarning” va “schyotlar” degan so'zlar tegishli ravishda “hisobvaraqlarning” va “hisobvaraqlar” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

7. 20-banddagи “schyoti” degan so'z “hisobvarag'i” degan so'z bilan almashtirilsin.

8. 21-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilar quidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning qoldiqlari buxgalteriya balansiga o‘tkaziladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning hisobot davridagi aylanmasi moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotga o‘tkaziladi.”.

9. 24-banda:

birinchi xatboshidagi “schyotlari” degan so‘z “hisobvaraqlari” degan so‘z bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “schyotning” va “schyot” degan so‘zlar tegishli ravishda “hisobvaraqning” va “hisobvaraq” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “schyotlar” degan so‘z “hisobvaraqlar” degan so‘z bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “schyotlarning” degan so‘z “hisobvaraqlarning” degan so‘z bilan almashtirilsin.

10. 25 va 26-bandlar quidagi tahrirda bayon etilsin:

“25. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnoması: asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (0100) bo‘yicha va moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (0300) bo‘yicha asosiy vositalarning, nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (0400) bo‘yicha nomoddiy aktivlarning, asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (0200) bo‘yicha eskirishning va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (0500) bo‘yicha amortizatsiyaning mavjudligi va harakatlanishining analitik va sintetik hisobi registri bo‘lib hisoblanadi.

Qaydnomada asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha ma’lumotlar pozitsiyali usul bilan har bir obyekt bo‘yicha alohida yozib boriladi.

Agar asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha harakatlanish mavjud bo‘lsa, har oyda ularning aylanma summalarini hisoblanadi va hisobot oyidan keyingi 1-sanaga qoldiq chiqariladi.

Asosiy vositalar bo‘yicha, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi asosida olinganlari bo‘yicha ham eskirish O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”ga (ro‘yxat raqami 3546, 2024-yil 9-avgust) muvofiq hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya tanlangan usulga binoan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-sonli BHMS) “Nomoddiy aktivlar”ga (ro‘yxat raqami 3547, 2024-yil 9-avgust) muvofiq hisoblanadi.

Aktiv qismi bo‘yicha hisoblangan eskirish (amortizatsiya) summalarini va barcha asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishni nazorat qilish uchun qaydnomada eskirishni (amortizatsiyani) o‘sib boruvchi tartibda hisobga oluvchi tegishli ustunlar ko‘zda tutilgan.

26. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasi uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (0600) va qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (5800) hisobga olinadigan

moliyaviy investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.”.

11. 27 — 29-bandlardagi “schyotlarda” degan so‘z “hisobvaraqlarda” degan so‘z bilan almashtirilsin.

12. 30 — 33-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“30. Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi olinadigan joriy to‘lovlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (4000) hisobga olinadigan xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi uchun qo‘llaniladi.

Qaydnomada 4010 hisobvaraqning debeti bo‘yicha pozitsiyali usulda, xaridor va buyurtmachilarning sotilgan tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlar uchun debtorlik qarzları yozib boriladi. 4010 hisobvaraqning kreditida yakuniy hisob-kitoblar bo‘yicha operatsiyalar (shu jumladan, xaridor va buyurtmachilardan olingan avanslarni hisobga kiritish) pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning krediti bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi.

31. Boshqa debtorlik qarzlarini hisobga olish qaydnomasi, fermer xo‘jaligining mahsulotlar va boshqa aktivlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan xo‘jalik operatsiyalari natijasida yuzaga keladigan debtorlik qarzlarining analitik va sintetik hisobi uchun mo‘ljallangan. Ushbu qaydnomada uzoq muddatli debtorlik qarzları va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (0900), 4210 “Ish haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar” hisobvarag‘i, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (4300), byudjetga bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (4400), davlat maqsadli jamg‘armalariga va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (4500), xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (4700) va boshqa joriy debtorlik qarzlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (4800) hisobga olinadigan boshqa debitor qarzdorlikning har bir turi uchun alohida ochiladi.

32. Pul mablag‘larini hisobga olish qaydnomasi, fermer xo‘jaliklari tomonidan kassadagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (5000), hisob-kitob hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini (5100), chet el valyutasidagi pul mablag‘larini (5200), bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (5500) hisobga olinadigan pul mablag‘larining hisobi uchun qo‘llaniladi.

Pul mablag‘larini hisobga olish qaydnomasida hisob-kitob hisobvarag‘i va bankdagi boshqa hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar yozuvlari bank ko‘chirmalari va unga ilova qilingan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Hisob-kitob hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish va rasmiylashtirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

33. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar bo‘yicha joriy majburiyatlar hisobvaraqlarida (6000) hisobga olinadigan mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish uchun qo‘llaniladi.

Qaydnomada 6010 hisobvaraqning krediti bo‘yicha pozitsiyali usul bilan olingan moddiy qimmatliklar uchun mol yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlari,

shuningdek, pudratchilarning bajarilgan ishlar va xizmatlari uchun hisobvaraqlari yoziladi. 6010 hisobvaraqnning debetida mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning hisobvaraqlari bo'yicha yakuniy to'lov operatsiyalari, pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlar krediti bilan korrespondensiyalashgan holda aks ettiriladi.”.

13. 34-banddagи “schyoti” va “Hisobdor shaxslarga qarzdorlik” schyotlari” degan so'zlar tegishli ravishda “hisobvarag'i” va “Hisobdor shaxslarga bo'lган qarzlar” hisobvaraqlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

14. 35 va 36-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“35. Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi, ish haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (6700) hisobga olinadigan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobi uchun mo'ljallangan.

Qaydnomaning “6710 — hisobvarag'i kreditidan quyidagi hisobvaraqlar debetiga” bo'limida fermer xo'jaligining ishchilariga bajarilgan ishlar uchun qonunchilikka muvofiq hisoblangan ish haqi summalarini aks ettiriladi.

Qaydnomaning “6710 — hisobvarag'i debetidan quyidagi hisobvaraqlar kreditiga (ushlab qolingga)” bo'limida ishchilarning ish haqidagi qonunchilikka muvofiq barcha ushlanmalarning (jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq, berilgan bo'naklar summasi, hisobdor shaxslar tomonidan o'z vaqtida qaytarilmagan summalar, turli korxonalar va shaxslar foydasiga ijro varaqalari bo'yicha summalar va boshqalar) summasi aks ettiriladi. “To'lanadi” ustunida ishchilarga to'lanishi lozim bo'lgan summa aks ettiriladi.

Qaydnoma to'lov hujjati ham hisoblanadi va fermer xo'jaligi ishchilariga ish haqini to'lash uchun mo'ljallangan.

Fermer xo'jaligi xodimlariga to'lanishi lozim bo'lgan ish haqi o'z vaqtida to'lanmagan holatda, ushbu qaydnomaning “To'lanadi” ustunida “Deponentlangan” deb yoziladi va ko'rsatilgan summa har bir xodim bo'yicha (pozitsiyali usuldagagi yozuv bilan) keyingi oyning qaydnomasida “20__ yil _____dagi qoldiq (xodim oldidagi qarzdorlik)” ustuniga o'tkaziladi.

36. Boshqa majburiyatlarni hisobga olish qaydnomasi, fermer xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmanan xo'jalik operatsiyalari natijasida yuzaga keladigan boshqa majburiyatlarning analistik va sintetik hisobi uchun mo'ljallangan. Ushbu qaydnoma, kechiktirilgan joriy majburiyatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (6200), olingan bo'naklarning joriy qismini hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (6300), byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (6400), sug'urta va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha joriy qarzlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (6500), qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (6800) va 6970 “Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar” hisobvarag'idan tashqari turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda (6900) hisobga olinadigan boshqa majburiyatlarning har bir turi bo'yicha kreditorlar kesimida alohida ochiladi.”.

15. 37-banddagи “schyotlarda” degan so'z “hisobvaraqlarda” degan so'z bilan almashtirilsin.

16. 38-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“38. Hisobot davri xarajat (sarf)larini hisobga olish qaydnomasi, hisobot

davri xarajatlarini (sarfini) ishlab chiqariladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxiga olib boriladigan ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘limgan, davr xarajatlari bo‘yicha umumlashtirish uchun qo‘llaniladi. Ushbu registrda hisobot davrining xarajatlari (sarflari) haqidagi ma’lumot 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” hisobvarag‘i, 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” hisobvarag‘i va davr xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (9400) aylanmasidan kelib chiqqan holda aks ettiriladi.

2010 “Asosiy ishlab chiqarish” hisobvarag‘i, 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” hisobvarag‘i va davr xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar (9400) debetidagi xarajatlар turli hisobvaraqlarning kreditlaridan boshqa qaydnomalardagi ma’lumotlar va bevosita alohida boshlang‘ich hisob hujjatlaridagi ma’lumotlardan yig‘iladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish mahsulotlariga (ishlar, xizmatlarga) sarflangan xarajatlar aniqlanishi bilan ularning haqiqiy tannarxi aniqlanadi va ular 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” hisobvarag‘i va 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” hisobvaraqlarning kreditidan mahsulotlardan (ishlar, xizmatlardan) foydalanish yo‘nalishlariga qarab tegishli hisobvaraqlarning debetiga hisobdan chiqariladi — omborga (2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar” hisobvarag‘i), realizatsiyaga (9110 “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” hisobvarag‘i), hisobot davrining yakunida esa davr xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning (9400) aylanmasi summasi 9910 “Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar)” hisobvarag‘iga yopiladi.”.

17. 41-banddagи “schyotning debetida xarajatlar moddalari bo‘yicha kreditlanadigan schyotlarni” va “schyotining” degan so‘zlar tegishli ravishda “hisobvaraqnинг debetida xarajatlar moddalari bo‘yicha kreditlanadigan hisobvaraqlarni” va “hisobvarag‘ining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

18. 43-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“43. Fermer xo‘jaligining hisobot davri qaydnomalarida (dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasи, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasи, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomalaridan tashqari) aks ettirilgan moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini umumlashtirish Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasida amalga oshiriladi.

Hisobot davrining yakunida har bir hisobvaraqnинг debit va krediti bo‘yicha aylanmasi hisoblanadi va hisobot davrining oxiriga (keyingi hisobot davrining boshiga) qoldiq chiqariladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasi sintetik hisob registri sanaladi, uning asosida hisobot davrining oxirida mablag‘larning va ular manbalarining mavjudligini aniqlash va moliyaviy hisobotni tuzish mumkin.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasi hisobot davri uchun ochiladi va unda hisobot davridagi operatsiyalar hisobi umumlashtiriladi. Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasining so‘nggi varag‘i fermer yoki qonunchilikda belgilangan tartibda u tomonidan belgilangan shaxs tomonidan imzolanadi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish Jamlanma qaydnomasining "Hisobvaraqlarning raqami va nomi" ustunida buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llanilgan barcha hisobvaraqlar keltiriladi va "20__ yil __ ___dagi qoldiq" ustuniga mablag'lari turlari va ularning manbalari bo'yicha hisobot davri boshidagi mavjud qoldiq summalarini o'tkaziladi. Aktiv hisobvaraqlarning qoldiqlari ushbu ustunning "debet" qismida, passiv hisobvaraqlar bo'yicha esa — "kredit" qismida yoziladi. Shundan so'ng, "20__ yil ___ uchun jami aylanma" ustunida shu hisobot davridagi ushbu hisobvaraqlar aylanmalarining jami yoziladi. "20__ yil __ ___dagi qoldiq" ustunida aktivlarni, majburiyatlarni va xususiy kapitalni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning har biri bo'yicha hisobot davrining yakunidagi mavjud qoldiq summalarini aniqlanadi. "Qaydnomalar nomi" ustunida esa keltirilgan hisobvaraqa hisob obyekti yuritiladigan qaydnomaning nomi ko'rsatiladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasida keltirilgan aktivlarni, majburiyatlarni va xususiy kapitalni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning qoldiqlari buxgalteriya balansiga o'tkaziladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasida keltirilgan hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning aylanmasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga o'tkaziladi.".

19. 44 va 45-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"44. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan yuritadigan fermer xo'jaliklari Buxgalteriya balansi va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlardan iborat yillik moliyaviy hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay, buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan yuritadigan fermer xo'jaliklari Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot va Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotlardan iborat yillik moliyaviy hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay taqdim etadi.

45. Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlarini hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3567, 2024-yil 4-noyabr) bilan belgilangan shakllarda va tartibda amalga oshiriladi".

20. 1-ilova* quyidagi tahrirda bayon etilsin:

21. 2-ilovaning matnidagi "Schytot" degan so'z "Hisobvaraqlar" degan so'z bilan almashtirilsin.

22. 3-ilovaning matnidagi "Schytotning" va "Schytot" degan so'zlar tegishli ravishda "Hisobvaraqlarning" va "Hisobvaraqlar" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

23. 4-ilovaning matnidagi "ijara shartnomasi bo'yicha olingan" va "schytotlar" degan so'zlar tegishli ravishda "ijaraga olingan" va "hisobvaraqlar" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

24. 5-ilovaning matnidagi "schytot" degan so'z "hisobvaraqlar" degan so'z bilan almashtirilsin.

25. 6 va 7-ilovalar* quyidagi tahrirda bayon etilsin:

* 1-2, 6-7-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

26. 8-ilovaning matnidagi “schyot” va “schyotlar” degan so‘zlar tegishli ravishda “hisobvaraq” va “hisobvaraqlar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
27. 9 va 10-ilovalar* quyidagi tahrirda bayon etilsin:
28. 11-ilovaning matnidagi “schyot” degan so‘z “hisobvaraq” degan so‘z bilan almashtirilsin.
29. 12-ilova* quyidagi tahrirda bayon etilsin:
30. 13-ilovaning matnidagi “schyot” degan so‘z “hisobvaraq” degan so‘z bilan almashtirilsin.
31. 14 — 17-ilovalar* quyidagi tahrirda bayon etilsin:
32. 20-ilovaning matnidagi “schyot” degan so‘z “hisobvaraq” degan so‘z bilan almashtirilsin.
33. 21-ilovaning matnidagi “schyotlar” va “schyot” degan so‘zlar tegishli ravishda “hisobvaraqlar” va “hisobvaraq” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.
34. 22-ilovaning matnidagi “Schyotning” degan so‘z “Hisobvaraqnning” degan so‘z bilan almashtirilsin.

* 9-10, 12, 14 — 17-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

297 Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish va rasmiy-lashtirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning ilovasiga o'zgartirish kiritish haqida*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 5-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2606-9

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 244-sun “Ayrim turdag'i tovarlarni bojxona chegarasi orqali o'tish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2014-yil 4-iyuldag'i 01-02/12-13-sun qarori (ro'yxat raqami 2606, 2014-yil 5-avgust) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 32-sun, 411-modda) bilan tasdiqlangan Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning ilovasidagi “B” sahifasi 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

7. Bojsiz olib kirish me'yori	Bojsiz olib chiqish me'yori
<p>Shaxsiy ehtiyoj uchun olib kirilayotgan tovarlar qiymati:</p> <p>xalqaro aeroportlar orqali — 1000 \$;</p> <p>temir yo'l va daryo bojxona chegarasi orqali — 500 \$;</p> <p>avtomobil (piyoda) o'tkazish punkti orqali — 300 \$.</p>	<p>Jismoniy shaxslar tomonidan deklaratsiya taqdim etmasdan tovarlarni olib chiqishning cheklangan me'yori 5000 \$.</p>
<p>alkogol — 2 litr</p> <p>tamaki mahsulotlar:</p> <p>sigaret 200 dona;</p> <p>sigara 5 dona;</p> <p>tamaki 100 gr;</p> <p>atir va ifor taratuvchi suvlar — 3 dona (300 ml oshmagan) va qonunchilikda belgilangan boshqa me'yorlar.</p>	<p>Guruch — 3 kg;</p> <p>Non-bulka mahsulotlari — 5 kg;</p> <p>Go'sht va go'sht oziq-ovqat mahsulotlari — 2 kg;</p> <p>Shakar — 2 kg;</p> <p>O'simlik moylari — 2 kg;</p> <p>Yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlari, poliz ekinlar, dukkakli o'simliklar va quritilgan sabzavot va mevalar — 40 kg;</p> <p>tayyor zargarlik buyumlari — 65 gr oltin va 200 gr kumush.</p>
<p>Bunda notijorat maqsadlarda tovarlarni olib kirayotgan shaxs temir yo'l, daryo transporti va avtomobil o'tkazish punktlari orqali 2 kalendar kundan kam, xalqaro aeroportlar orqali 3 kalendar kundan kam muddat bo'lgan va (yoki) bir kalendar oy davomida xorijiy davlatda uch va undan ortiq marotaba bo'lganda bojsiz olib kirish normalari qo'llanilmaydi.</p>	<p>”</p>

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 7-iyunda e'lon qilingan.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq 2025-yil 2-iyuldan boshlab kuchga kiradi.

Vazir

Toshkent sh.,
2025-yil 28-may,
263-son

D. KUCHKAROV

Kelishildi:

Milliy statistika qo‘mitasi raisi

B. HAMRAYEV

2025-yil 20-may

**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг
вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг
норматив-хукуқий хужжатларини давлат рўйхатидан
ўтказиш ҳолати тўғрисида
МАЪЛУМОТИ**

I. Давлат рўйхатидан ўтказилди:

1. Ўзбекистон Республикаси мудофаа вазирининг 2025 йил 14 майдаги 494-сон “Ўзбекистон Республикаси фуқароларни ҳарбий рўйхатга олишни ташкил этиш ва юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги бўйруғи.

2025 йил 3 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3272-3.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 16-maydagi 9/2-son hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2025-yil 15-maydagi 2-son “Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi va investitsiya maslahatchisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qarori.

2025-yil 3-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1782-5.

3. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 20-maydagi 9-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2025-yil 4-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3627.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-maydagi 10/10-son “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori.

2025-yil 4-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2570-2.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2025-yil 6-maydagi 01/14-11/38-son “O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2025-yil 5-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3487-2.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 8-maydagi 257-son va Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 7-maydagi 31-son “Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori.

2025-yil 5-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1781-5.

7. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 28-maydagi 263-son “Yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasini to‘ldirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning ilovasiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2025-yil 5-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2606-9.